



UDK: 94(32.04/0)

Marifat KAZAKOVA,
Buxoro davlat texnika universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: k.marifat1970@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, t.f.d O.Rashidov taqriri asosida

BUXORO VILOYATIDA AYOL PEDAGOGLAR FAOLLIGINING O'SISHI (2017-2021-yillar)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, Buxoro viloyatida umumta'lim maktablari faoliyatiga bo'lgan e'tibor masalalari imkon qadar yoritilgan. Mamlakat miqyosida o'qituvchilarning moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi, ularga zamonaviy uy-joy va avtotransport kreditlari ajratilishi, shuningdek, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan o'quv kurslari, "Ustozlar akademiyasi" kabi tashabbuslar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarning moddiy rag'batlantirilishi, Buxoro viloyati ta'lim tizimi, metodik yordam, ustozlar akademiyasi, ayol pedagoglar faolligi.

РОСТ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН-ПЕДАГОГОВ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ (2017-2021 гг.)

Аннотация

В данной статье освещаются реформы, реализуемые в системе образования Узбекистана с 2017 года, в частности, внимание, уделяемое деятельности общеобразовательных школ Бухарской области. Анализируются меры по материальной и моральной поддержке учителей на республиканском уровне, предоставление им современных жилищных и автокредитов, а также инициативы, направленные на развитие их профессионального потенциала – такие как обучающие курсы и программа «Академия наставников».

Ключевые слова: реформы в образовании, поддержка педагогов, материальное стимулирование учителей, система образования бухарской области, методическая помощь, академия наставников, активность женщин-педагогов.

THE GROWTH OF ACTIVITY OF FEMALE EDUCATORS IN BUKHARA REGION (2017–2021)

Annotation

This article highlights the reforms implemented in Uzbekistan's education system since 2017, with a particular focus on the activities of general education schools in the Bukhara region. It analyzes nationwide efforts to provide both material and moral support for teachers, including access to modern housing and vehicle loans. Additionally, the paper examines initiatives aimed at enhancing teachers' professional capacity, such as training courses and the establishment of programs like the "Academy of Mentors".

Keywords: education reforms, support for teachers, material incentives for educators, education system of bukhara region, methodological assistance, academy of mentors, activity of female educators.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yildan e'tiboran maktab ta'limini rivojlantirish, o'qituvchilar faoliyatini chuqur tahlil qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim choralar ko'rildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'qituvchining mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirmasdan turib, ta'limda kutilgan natijalarga erishish mumkin emas. Shu maqsadda, so'nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilinib, o'qituvchilarning oylik maoshlarini oshirish, ayniqsa, chekka qishloq hududlaridagi maktablarga malakali pedagoglarni jalb etish uchun ularga uy-joy va avtotransport kreditlari ajratish kabi tashabbuslar ilgari surildi. Bu islohotlar ta'lim sifati va tizim barqarorligini ta'minlash yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid manbalar va adabiyotlar tahlili. Alohida kichik tadqiqot sifatida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritib berish uchun Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari, so'nggi yillarda chop etilgan mavzuga oid ilmiy maqolalar va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada arxiv tadqiqot, tarixiy va qiyosiy tahlil, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokama. O'zbekiston bo'ylab amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari Buxoro viloyatida ham o'zining amaliy natijalarini ko'rsatmoqda. Viloyatda faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning mehnatini qadrlash, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. So'nggi yillarda viloyatdagi ko'plab maktablarda ta'lim sifati oshib, bu o'z navbatida, o'quvchilarning bilim darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyatining chekka va olis hududlarida joylashgan maktablarga malakali pedagoglarni jalb etish uchun ularning yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, o'qituvchilarga zamonaviy uy-joylar ajratilishi, transport vositalari uchun qulay kreditlar taqdim etilishi, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida samarali choralar ko'rilmoqda.

Mamlakatda ayollarga bo'lgan e'tiborning yildan-yilga ortib borishi, albatta, amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liqdir. Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun ham ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Xususan, "Eng yaxshi metodik tavsiya", "Eng yaxshi ochiq dars", "Eng namunali tadbir ssenariysi", shuningdek, "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" tanlovlari joriy qilindi. Maktablarda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi.

2017-yilda barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar boshlandi. Maktablarda ishlayotgan o'qituvchilarning faoliyati chuqur o'rganilib chiqildi va ularni qo'llab-quvvatlash borasida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. O'qituvchi oylik maoshlari haqida fikr yuritir ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Maktab o'qituvchisini moddiy rag'batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz"[1]. 2020-yilda xalq

ta'limi xodimlari oylik ish haqini oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berilib, chekka qishloqlardagi maktablarga o'qituvchilarni jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish ham ko'zda tutildi. Buxoro viloyati umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan xotin-qiz pedagog xodimlarning 2017-2021-yillardagi soni xususida quyida keltirilgan jadval orqali yetarlicha ma'lumot olish mumkin[2].

Hududlar	Yillar bo'yicha				
	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Buxoro sh.	2620	3015	3631	3815	4169
Kogon sh.	524	570	660	676	676
Olot t.	1521	1545	1637	1709	1690
Buxoro t.	1878	2009	2224	2285	2222
Vobkent t.	1961	1974	2053	2117	2101
G'ijduvon t.	3585	3886	4206	4377	4347
Kogon t.	783	884	934	996	1010
Qorako'l t.	2700	2742	2771	2852	2810
Qoravulbozor	312	342	375	386	399
Peshku t.	1653	1738	1909	1970	1933
Romitan t.	1627	1756	1880	1920	2010
Jondor t.	2502	2601	2701	2754	2770
Shofirkon t.	2729	2880	3002	3043	2972
Jami ayollar:	19747	21032	22192	21843	21890
Jami :	24395	25942	27983	28900	29109

Viloyatdagi Buxoro tumanining 46-sonli maktabi, Kogon tumanining 23 va 24-sonli maktablari, Peshku tumanining 27-sonli maktabi, Romitandagi 31-maktab, Qorako'l tumanining 53-sonli maktabi "Qizil hudud"da, ya'ni ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar hisoblanib, bu maktablarga kelib dars berayotgan 7 nafar oliy toifali ayol muallimalarning oylik maoshlari 100 foiz qo'shimchasi bilan berilmoqda[3]. Viloyat 2017-2021-yillar oralig'ida Ijtimoiy fanlar yo'nalishlarida Respublika miqyosida eng ko'p metodik tavsiyasi ommalashtirilgan viloyatga aylandi. Bunda, albatta, jonkuyar, fidokor metodist Hilola Qobilovaning o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlar doirasida o'qituvchilarning mavqeini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan izchil qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, pedagoglarning bilim va kasbiy saviyasini muntazam oshirib borish, zamonaviy ta'lim metodlarini faol qo'llash, jamoat ishlarida ishtirokini ta'minlash hamda halol mehnat va tashabbuskorlik orqali o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish zarurligi ham ta'kidlanmoqda.

Mazkur yo'nalishda Buxoro viloyati respublika miqyosida ilg'or amaliyotlarni yo'lga qo'ygan hududlardan biri sifatida ajralib turadi. Xususan, viloyatda faoliyat yuritayotgan tajribali pedagoglar hamda yangi ish boshlayotgan yosh mutaxassislarining ilmiy salohiyatini oshirish va ularni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ustozlar akademiyasi" guruhi tashkil etildi. Ushbu tashabbus doirasida 2019-2020-o'quv yili davomida 165 nafar, 2020-2021-o'quv yilida esa 632 nafar pedagog xodim mazkur guruh tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarida faol ishtirok etdi. Bu tashabbusning dolzarbligi va samaradorligini ko'rsatadi, natijada viloyatda ta'lim sifatini oshirish, ustoz-shogird tizimini mustahkamlash hamda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi barqaror model shakllanmoqda.

2017-yildan boshlangan tub o'zgarishlar davrida Buxoro xalq ta'limi boshqarmasi va metodistlar faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Soha mutaxassislariga yanada ko'proq

imkoniyatlarning yaratilishi, ta'lim sifatini oshirish borasidagi ishlar tez orada o'z samarasini bera boshladi. "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi-2018" tanlovining Respublika bosqichida ishtirok etgan Buxoro viloyati nomzodlari eng yuqori natijani qayd qilishdi. Xususan, Buxoro viloyati Vobkent tumani 1-sonli maktabning nemis tili o'qituvchisi Jo'rayeva Feruza Baxodirovna 90,8 ball bilan, Olot tumani 31-raqamli IDUM o'qituvchisi Bekov Bekzod Hayitboyevich matematika fanidan 85,2 ball bilan, Buxoro shahar 35-sonli maktab o'qituvchisi Boltayeva Qambara Abdullayevna biologiya fanidan 92,5 ball bilan faxrli birinchi o'rinni, Jondor tuman 1-sonli maktab o'qituvchisi Rajabova Sarvinoz Yusupovna kimyo fanidan 94 ball bilan, tumanning 26-raqamli maktab o'qituvchisi Joniyev Shuhrat Komilovich informatika fanidan 81,1 ball bilan ikkinchi o'rinni, G'ijduvon tuman 21-maktab o'qituvchisi Kutliyeva Snajana Huseynovna rus tili fanidan 80,7 ball bilan, tumanning 63-IDUMi o'qituvchisi Xojiyeva Feruza Nasriddinovna fizika fanidan 80,2 ball bilan uchinchi o'rinni egallashdi[4].

2017-yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar davrida Buxoro viloyatidagi xalq ta'limi boshqarmasi va metodistlar faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Soha mutaxassislariga uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar, pedagogik salohiyatni rivojlantirish va ta'lim sifati ustida olib borilgan tizimli ishlar qisqa fursatda o'z natijasini bera boshladi. Buning yaqqol dalili sifatida "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi-2018" respublika tanlovida Buxoro viloyati nomzodlarining yuqori natijalar bilan ajralib chiqqanini ko'rsatish mumkin. Jumladan, nemis tili, matematika, biologiya, kimyo, informatika, rus tili va fizika fanlaridan qatnashgan o'qituvchilarning aksariyati respublika bosqichida birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallab, o'z salohiyatlari hamda viloyatda ta'lim sifati yuksalib borayotganini amalda isbotlashdi. Bu natijalar Buxoro viloyatida nafaqat o'qituvchilarning kasbiy mahorati, balki ularni tayyorlash, metodik qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi ham izchil ishlayotganidan dalolat beradi.

"Ustoz – 2021 milliy mukofoti" tanlovining Respublika bosqichida Norova Hilola Ismoilovna Buxoro

shahar kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan 123-MMIning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi "Mehridaryo ustoz" nominatsiyasi bo'yicha, Tag'oyeva Gulnavoz Narziqulovna Shofirkon tumanidagi 30-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi "Matonatli ustoz" nominatsiyasi bo'yicha, Karyagdiyeva Dilbar Rajabovna Buxoro tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi "Ta'lim sohasida ko'rsatgan xizmatlari uchun" nominatsiyasi bo'yicha, Jumayeva Gulruxsor Islomovna Romitan tumanidagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi "Umid timsoli" nominatsiyasi bo'yicha, Muxiddinova Faxriniso Jaloletdinovna Kogon shahridagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi "Boshlang'ich ta'lim fidokor ustози" nominatsiyasi bo'yicha final bosqichida sovrindorlar qatoridan joy olishdi[5]. Bunday natijalar viloyatda olib borilayotgan ishlar va yosh pedagoglar faoliyatiga bo'lgan e'tibor bilan ham bevosita bog'liqdir.

2020-2021-o'quv yilida viloyatning 537 ta umumta'lim maktabi, 14 ta Barkamol avlod maktablari va 1 ta malaka oshirish hududiy markazida deyarli 30 mingga yaqin, shundan 22 ming nafar ayol o'qituvchilar faoliyat yuritdi[6]. Joriy etilayotgan tanlovlar maktab o'qituvchilari salohiyatini namoyish qilishda ahamiyatli bo'layapti.

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan chuqur va izchil islohotlar Buxoro viloyatidagi ta'lim tizimi faoliyatida ham o'zining amaliy samarasini bermogda. Xususan, tizim xodimlarining ortib borayotgan faolligi, tashabbuskorlik ruhining mustahkamlanishi hamda kasbiga sadoqat bilan yondashuvi natijasida o'tgan o'quv yili davomida viloyat miqyosida salmoqli yutuqlarga erishildi. Buni mamlakat umumta'lim muassasalari milliy reytingida Buxoro viloyatining eng yuqori pog'onani egallagani yaqqol tasdiqlaydi. Bu holat hududiy ta'lim sifatining oshgani, pedagogik faoliyatda samaradorlik va innovatsion yondashuvlarning kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu natijalar viloyat ta'lim tizimining respublika darajasida raqobatbardosh ekanligini va amalga oshirilayotgan islohotlarning hayotga samarali tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Tahlillarga yuzlanadigan bo'lsak mazkur reytingning tuman va shaharlar kesimidagi kuchli o'ntaligi safida Buxoro shahri 2-, Jondor tumani 3-, Kogon shahri 4-, Kogon tumani

esa 7-o'rindan joy oldi. Ixtisoslashtirilgan maktablar orasida Kogon tumanidagi 1-IDUM kuchli o'ntalikning 5-qatoriga kirgan bo'lsa, umumta'lim maktablarimizning 7 tasi – Buxoro shahridagi 38-, 28-, Buxoro tumanidagi 49-, 14-, Jondor tumanidagi 3-, 41- hamda 38-maktablar o'ntalik qatoridan o'rin oldi[7].

Buxoro viloyatidagi ta'lim tizimida ayol pedagoglarning soni va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror o'sish kuzatilganini ko'rish mumkin. 2021 yilda umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 24 488 nafar pedagogning 82,6 foizi (20 231 nafar) toifali ustozlar ekanligi, ulardan aksariyati ayollar bo'lishi ta'lim sohasida gender tengligi va ayollarning faol integratsiyasi yo'lida ijobiy natijalarga erishilganini anglatadi[8]. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi: birinchidan, ayollarning pedagogik sohadagi ijtimoiy rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan davlat siyosati (xususan, Prezident qarorlari, mahalliy dasturlar va ayol pedagoglarni rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar) o'z samarasini bermogda. Ikkinchidan, oliy toifali pedagoglar ulushining 10,3 % dan 13,1 % gacha oshishi – sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi – bu esa faqat son emas, balki malaka jihatdan ham rivojlanish bo'lganini bildiradi. Bu tendensiya Buxoroda ta'lim sifati va barqaror kasbiy rivojlanish borasida ayol pedagoglarning muhim kuch sifatida maydonga chiqayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu holat gender tenglikning ta'lim sohasida faqat formallik emas, balki mazmunli jarayon sifatida qaralayotganini ham ilmiy asoslaydi. Demak, yuqoridagi raqamlar ortida nafaqat statistika, balki ta'lim tizimining ijtimoiy va sifat jihatidan o'zgarish sur'atlari mujassam.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, o'qituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash, ularni rag'batlantirish va kasbiy rivojlanishini ta'minlash yo'lida ko'rilayotgan choralar Buxoro viloyatida ham ijobiy natijalar bermogda. Viloyatdagi umumta'lim maktablari ta'lim sifati oshib, pedagoglarning salohiyati yildan-yilga yuksalib bormogda. Hududdagi chekka maktablarga oliy ma'lumotli malakali kadrlarning jalb etilishi va ularni qo'llab-quvvatlash tizimi viloyatda ta'limning izchil rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Statistik ko'rsatkichlar, tanlovlardagi yutuqlar va tajribali metodistlarning faoliyati bu yo'ldagi ishlarning samarali olib borilayotganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. "Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylaniши зарур"// <https://president.uz/uz/2820>
2. Buxoro viloyat Statistika boshqarmasi boshlig'i U.O.Djumanazarovning 2017-2021-yillar bo'yicha hisoboti // Buxoro viloyat Statistika boshqarmasi joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti.
3. Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti.
4. Buxoro viloyat xalq ta'limi Boshqarmasi joriy arxivi, 2019-yil ma'lumoti
5. Buxoro viloyat xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i D.Mustafayevaning 2020-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisoboti, Buxoro viloyat xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti
6. Очик маълумотлар портали, 2021 йил 30 июнь/<https://data.egov.uz/uzbKr/data/611521c6114fbfd20c35c60>
7. https://uza.uz/oz/posts/yil-sarhisobi-va-kelgusi-rejalar_416389
8. https://uza.uz/oz/posts/yil-sarhisobi-va-kelgusi-rejalar_416389



Шахла НУРУЗАДЕ,

Доцент кафедры общественных наук

Бакинского славянского университета, Азербайджан

E-mail: sh_nuruzade@yahoo.com

На основе отзыва профессора НуУз, доктора исторических наук Б.Убайдуллаевой

ГОСТЕПРИИМСТВО В СИСТЕМЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ АЗЕРБАЙДЖАНЦЕВ: В КОНТЕКСТЕ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация

Гостеприимство является одной из древних и устойчивых традиций, отражающих культурно-этнографическую идентичность азербайджанского народа. Эта традиция, восходящая к мировоззрению древних тюрков, рассматривается как важная национально-духовная ценность и выражается в уважительном отношении к гостю, особенностях быта и застольной культуре. Этнографические данные подтверждают, что во всех регионах Азербайджана гостеприимство сохраняется как элемент общественной морали и социальной нормы.

Ключевые слова: Гостеприимство, этнокультура, тюркские народы, социальный институт, национально-духовные ценности, обычаи и традиции, гостевая комната.

HOSPITALITY IN TAYE SYSTEM OF SPIRITUAL VALUES OF AZERBAIJANIS: IN TAYE CONTEXT OF TURKIC PEOPLES

Annotation

Hospitality is one of the ancient and enduring traditions reflecting the cultural and ethnographic identity of the Azerbaijani people. This tradition, rooted in the worldview of the ancient Turks, is regarded as an important national and spiritual value and is expressed through respectful treatment of guests, everyday customs, and table culture. Ethnographic data confirm that hospitality is preserved in all regions of Azerbaijan as an element of public morality and social norms.

Keywords: Hospitality, ethnoculture, Turkic peoples, social institution, national-spiritual values, customs and traditions, guest room.

OZARBAYJON XALQI MA'NAVY QADRIYATLAR TIZIMIDA MEHMONDO'STLIK: TURKIY XALQLAR KONTEKSTIDA

Annotatsiya

Mehmondo'stlik – ozarbayjon xalqining madaniy-etnografik o'ziga xosligini aks ettiruvchi qadimiy va mustahkam an'analardan biridir. Ushbu an'ana qadimgi turkiy xalqlarning dunyoqarashiga tayanadi va milliy-ma'naviy qadriyat sifatida qadrlanadi. U mehmonlarga hurmat, turmush tarzi va dasturxon madaniyatida namoyon bo'ladi. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, Ozarbayjonning barcha hududlarida mehmondo'stlik ijtimoiy axloq va ijtimoiy norma sifatida saqlanib qolgan.

Kalit so'zlar: Mehmondo'stlik, etnomadaniyat, turkiy xalqlar, ijtimoiy institut, milliy-ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar, mehmonxonalar.

Введение. Гостеприимство является одной из древнейших традиций, играющих важную роль в культурно-этнологической идентичности азербайджанского народа. Его истоки восходят к мировоззрению тюркских народов, где гость почитался как особая фигура. Проявления уважения к гостю – отдельная комната, богатое угощение, особое внимание – отражены в быту, фольклоре и пословицах. Исторические и этнографические источники подтверждают, что во всех регионах Азербайджана гостеприимство сохранялось не только как традиция, но и как нравственная норма, отражающая духовные ценности народа.

Цель статьи. Цель настоящей статьи – проанализировать феномен гостеприимства как элемент духовных ценностей азербайджанцев в контексте общей тюркской культурной традиции. Исследование направлено на выявление историко-этнографических основ, социальных функций и символического содержания этой традиции в азербайджанском обществе.

Литературный обзор. Изучение традиций гостеприимства тюркских народов, в частности азербайджанцев, основано на ряде историко-

этнографических источников. В «Древнетюркском словаре» (1969) раскрывается семантика понятия «гость» в контексте социально-культурных отношений древнетюркоязычных народов. Г. Гулиев (1987) исследует социальные функции гостеприимства в азербайджанской этнографии, подчёркивая его роль в семейных и общественных отношениях. Аналогичные традиции в Средней Азии и Казахстане представлены в сборнике «Народы Средней Азии и Казахстана» (1962), а Д. Исаева (2023) рассматривает узбекское гостеприимство с этнопсихологической точки зрения. В азербайджанском контексте историко-культурные аспекты данной традиции анализируются Ш. Бюнядовой в труде «Средневековая азербайджанская семья» (2012), где рассматривается семейная модель. Отражение гостеприимства в народной мудрости и литературных источниках прослеживается в «Пословицах» (1985), у А. Гашимова (1991), а также в трактате Низамульмюлька «Сиясетнаме» (1987). Наконец, сочинения иностранных путешественников – «Путешественники об Азербайджане» (1961) и А. Дюма «Кавказ» (2010) – представляют взгляд на традиции гостеприимства со стороны европейских наблюдателей.

Для изучения культурно-этнологических аспектов гостеприимства азербайджанцев применялся этнографический метод наблюдения, фиксирующий социальные практики и ритуалы на местах. Исторический и кросс-культурный анализ позволил выявить устойчивые и изменяющиеся черты института гостеприимства. Эти методы обеспечили комплексное понимание его роли в национально-духовной идентичности.

Анализ и результаты.

Этнокультурный портрет традиции гостеприимства.

Общий обзор и терминологические основания. Одной из ключевых характеристик, определяющих этнокультурный портрет азербайджанского народа, является традиция гостеприимства. Эта традиция входит в систему базовых национальных ценностей и требует исследования в контексте историчности, национальной идентичности и современности. Гостеприимство выступает в качестве одного из важнейших социальных институтов, сформированных в азербайджанском обществе. В древнетюркских языках понятие «гость» выражалось с различными семантическими оттенками. Согласно этимологическим источникам, этот термин связан с такими понятиями, как проживание, обустройство, отдых и социальная близость [1]. Это указывает на то, что для древних тюрков «гость» означал не просто пришедшего человека, но и фигуру, занимающую важное место в системе социальных отношений. В ходе исторического развития традиция гостеприимства подвергалась трансформациям и приобретала новые формы и содержания в разные эпохи. Например, в современности, особенно в сельской местности, эта традиция продолжает существовать: семьи сохраняют лучшую комнату в доме для гостей и принимают их с особым уважением.

Историческое развитие и символика пространства традиции гостеприимства.

Гостеприимство занимает важное место в общественной жизни азербайджанского народа с древних времен и претерпевало различные трансформации на протяжении истории. В процессе исторического развития эта традиция стала неотъемлемой частью социальных отношений, приобретая новые смыслы и формы, адаптируясь к различным эпохам и пространствам. Особенно в сельских районах эта традиция сохраняется до настоящего времени: семьи выделяют для гостей лучшие комнаты и оказывают им особое уважение. Письменные источники средневековья также свидетельствуют о высоком статусе гостеприимства на государственном уровне. В произведениях Сельджукских султанов, например у великого визиря Низам аль-Мулька, описываются традиции накрытия стола султанами. В «Сиясатнаме» говорится: «Султан Тогрул каждое утро велел готовить разнообразные вкусные и чистые блюда, требовал их изобилия и качества. Когда он отправлялся на охоту или прогулку верхом, он посылал в пустыню много еды, чтобы все эмиры и народ удивлялись» [9]. Это показывает, что гостеприимство воспринималось не только как личное качество, но и как средство политического престижа и управления. Записи кастильского дипломата Руи Гонсалеса де Клавихона о дворце Эмира Тимура в XV веке также отражают масштаб традиции гостеприимства. Он отмечает, что послам выдавали лошадей и еду, гости садились на покрытые коврами комнаты и угощались разнообразными блюдами. Для путешественников и торговцев имелись специальные дома, каждому гостю преподносились подарки, а приёмы были очень пышными и разнообразными [4].

В азербайджанской культуре гостевая комната – это не только функциональное пространство, но и символ социального статуса семьи и выражение уважения к гостю. Эти комнаты украшались коврами, диванами, подушками и узорчатыми тканями для обеспечения комфорта гостя. Во время путешествия Александра Дюма на Кавказ в 1858-1859 годах он описал приём в доме в Шемахе: «Нас приняли в помещении с горячей печью, при свете зажжённой лампы, украшенном прекрасными коврами и диванами. Я спал не на кровати, а на ковре» [8]. Это описание подчёркивает, что гостевая комната служила не только физическим, но и эстетическим и психологическим комфортом. Для гостей высокого ранга оказывалось особое почтение – под их ноги стелили ковры, о их прибытии заранее извещали регион. В записях английского миссионера XVI века Энтони Дженкинсона упоминается приём в Шемахе, на котором подавалось 290 видов блюд, что свидетельствует о богатстве традиции [2]. Кроме того, в городах существовала официальная должность «механдар» – лица, уполномоченного принимать и размещать официальных гостей. Путешественник XVII века Евлия Челеби в своих записях подробно описывает функции механдаров и их роль в системе гостеприимства [2]. У узбеков также существовали специальные комнаты для гостей. Дом и усадьба состоятельного владельца делились на две половины: внутреннюю – женскую (ичкари) и внешнюю – мужскую (тагицари). В первой проходила вся жизнь семьи, вторая, с парадной комнатой (меумонхона), служила для приема гостей [3].

«Этнографические аспекты традиции гостеприимства и устное творчество»

Традиция гостеприимства широко отражена в пословицах: «Гость – цветок дома»; «Дом без гостей – как мельница без воды»; «Дом без гостей превращается в развалину»; «Дом без гостей несчастлив»; «Стол любящего гостя не останется пустым»; «Гость – украшение стола» [7]. Обслуживание гостя считается обязанностью хозяина дома, при этом проводится предварительная подготовка. В доме выделяется специальная гостевая комната, где готовятся новые одежды, посуда, уделяется внимание чистоте помещения. Эта традиция сохраняется и поныне. Этнографические данные показывают, что в регионах страны традиции гостеприимства имеют сходные черты. Например, собранные в Карабахе этнографические материалы свидетельствуют, что там для гостя выделялась отдельная комната, готовились особые блюда, хозяин, исходя из своих возможностей, забивал овцу, козу или петуха, мясо укладывалось под плов. Гость, прибывший издалека, приносил подарки, а хозяин провожал его с подарком («это тоже твоя доля»). Таким образом, традиция гостеприимства является показателем культурного уровня народа и основным элементом социальных отношений. Почтительное отношение к гостю, забота о нем символизируют близость, дружелюбие и уважение в человеческих взаимоотношениях.

Божественное значение гостя и аналогичные верования у тюркских народов

Принятие гостя как божественного посланника характерно не только для азербайджанцев, но и для других тюркских народов. Среди казахов широко распространено поверье, что среди случайных гостей может быть пророк Хызыр. Они подчеркивают вероятность присутствия святого Хызыра среди случайных гостей выражением «один из сорока – Хызыр» («қырықтың бірі Қыдыр»). Согласно преданию, Хызыр проходит испытание щедрости и человечности, появляясь либо в образе белой собаки, либо беловолосого старца.

Поэтому казахи щедро угощают чужих гостей, делятся с ними пищей и проявляют к ним особое уважение. Такое отношение возводит гостеприимство у казахов в ранг священного долга. Несоблюдение гостеприимства ведёт к потере «кут» – веры в приход духовной силы и благодати в дом и семью. Дом, покинутый «кутом», означает несчастье, нищету и неудачу. Современные казахи на свадьбах и похоронах обогащают свои столы разнообразными и обильными блюдами, что свидетельствует о сохранении традиций гостеприимства. У узбеков гость рассматривался в старом быту как лицо священное, как «дар бога» [3].

Азербайджанская традиция дарения подарков и угощения гостей: значение

Корни традиции дарить подарки гостю у азербайджанского народа глубоки и наполнены духовным смыслом. Этот обычай направлен на почтение «гостя Аллаха», а также пророка Хызыра. Подарки и традиции застолья, преподносимые гостю, связаны с признанием его святости и принятием благ и изобилия, которые гость приносит с собой. Распространённые в народе пословицы о гостеприимстве («Дом без гостя — неудачный», «У того, кто любит гостей, стол не пуст») и выражения («Добро пожаловать, ты принёс радость», «Ты почётен в моих глазах») подчёркивают священный статус гостя как «гостя Аллаха». Эти слова демонстрируют, как глубоко в народном сознании укоренились ценности гуманности, взаимопомощи и милосердия. Угощение гостей – это воспитательная и социальная традиция, передаваемая от предков. Эта традиция сохраняется и в современную эпоху, играя важную роль в воспитании молодого поколения в духе гуманности, уважения к другим и доброжелательности [10].

Обмен подарками между гостем и хозяином способствует установлению дружеских, братских и искренних отношений. Эти социальные отношения отражены и в пословицах: «Приход благ гостя опережает его самого», «Гость приносит благополучие», «Гость не смотрит на брови, а смотрит на угощение» [5].

Гостеприимство и культурная идентичность: общий традиционный кодекс поведения в тюркском мире.

Гостеприимство занимает ключевое место в культурной идентичности тюркских народов, включая Азербайджан, Турцию, Узбекистан и другие регионы. У узбеков, например, гостеприимство связано с уважением и верностью, а отказ гостю считается позором для семьи и общины [5]. Традиционные обряды, такие как обмывание гостя водой и подготовка специальной комнаты («мехмонхона»), подчёркивают важность этой ценности. В тюркском мире гостеприимство символизирует братство, мужества и благородство, сопровождаясь

строгим соблюдением уважения к хозяину дома, что подтверждается народными пословицами [6]. Эта традиция выступает не только как моральная норма, но и как механизм сохранения коллективной памяти и укрепления этнической солидарности. Исторически гостеприимство способствовало культурной интеграции и дипломатическим связям, например, через караван-сарай, где путникам бесплатно предоставлялись еда и ночлег. Важным элементом было покровительство «гостю от Бога», что подчёркивает его социальное значение как института. Современные культурные фестивали и международные проекты в странах тюркского мира продолжают эту традицию, превращая гостеприимство в инструмент культурной дипломатии. Таким образом, гостеприимство – это многогранная ценность, объединяющая тюркские народы, укрепляющая национальную идентичность и служащая основой для межкультурного диалога и сохранения историко-культурного наследия.

Гостеприимство: трансформация традиций в современном обществе

Гостеприимство, сформированное тысяче-летиями у тюркских народов, претерпевает изменения под воздействием глобализации, урбанизации и цифровых технологий. Если традиционно оно воспринималось как моральный долг в семье и общине, то сегодня гостеприимство выходит и на институциональный уровень, выступая важным инструментом культурной дипломатии в странах тюркского мира. Несмотря на рост индивидуализма и трансформацию социальных структур, гостеприимство сохраняет свою значимость, особенно в диаспорах, где способствует укреплению национальной идентичности через обряды и праздники. Главные моральные ценности – уважение, участие и радушие – остаются неизменными, что обеспечивает устойчивое место гостеприимства в культурном коде тюркских народов.

Заключение и рекомендации. Госте-приимство является ключевым элементом культурной идентичности тюркских народов и играет важную роль в сохранении их духовного наследия. В условиях глобализации и модернизации традиционные формы гостеприимства транс-формируются, приобретая новые выражения, в том числе виртуальные. Для эффективного сохранения и развития этой ценности важно систематически изучать и документировать традиции, а также привлекать молодое поколение через современные коммуникационные платформы. Таким образом, гостеприимство продолжает быть мощным инструментом укрепления национального единства и культурной солидарности тюркских народов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Древнетюркский словарь. / Под. Ред. В.М.Наделяев, Д.М.Насилов, Э.Р.Тенишев, А.М.Щербак. - Ленинград: Наука, - 1969.
2. Гулиев, Г. О традиционном гостеприимстве азербайджанцев. // Известия АН Азерб, ССР, серия истории, философии и права № 1, 1987, стр. 66.
3. Народы Средней Азии и Казахстана: в 2-х томах: Т. 1. - Москва: Издательство: АН СССР, 1962
4. Путешественники об Азербайджане. Т. 1. - Баку, 1961
5. Исаева Д. Традиции И Обычаи: Гостеприимство в Узбекистане/ https://libeldoc.bsuir.by/bitstream/123456789/51435/1/Isaeva_Tradicii.pdf
6. Atalar sözü. / tərt. ed. H.Qasimzadə; red. B.Tahirbəyov - Bakı: Yazıçı, - 1985.
7. Bünyadova Ş, Orta əsr Azərbaycan ailəsi. - Bakı: Elm, 2012
8. Duma, A. Qafqaz. - Bakı: Qafqaz, - 2010. -
9. Əbu Əli Həsən ibn Nizamülmülk. Siyasətnamə.- Bakı: Elm, 1987
10. Həşimov, Ə.Ş. Pedagogika kursunun tədrisində xalq hikmətindən istifadə. - Bakı: Maarif, - 1991. – 240 s.



UDK: 336.226 (575.174)

Bahodir TOSHIMOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
E-mail: btoshimov@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d. E.Qobulov taqrizi asosida

XIX ASR O'RTALARI VA XX ASR BOSHLARIDA SURXON VOHASI BEKLIKLARIDA SOLIQ TIZIMI

Аннотация

Ushbu maqolada Surxon vohasi bekliklarida soliq tizimining yuritilishi hamda uning oddiy aholining hayotiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, bekliklardagi soliq turlari va ularning undirilish tartiblari, miqdorlari hamda amirlik tomonidan tayinlangan soliq yig'uvchilar, mahalliy mulozimlarning aholidan soliq yig'ib olishdagi roli va ularga qarshi mehnatkash aholining turli xil norozilik chiqishlari hamda harakatlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Boysun bekligi, Denov bekligi, Sherobod bekligi, xiroj, zakot, ushr va boshqalar.

СИСТЕМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В БЕКСТВАХ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА В СЕРЕДИНЕ XIX И НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье освещается система налогообложения, существовавшая в бекствах Сурханского оазиса, а также ее влияние на жизнь простого населения. Кроме того, приводятся сведения о видах налогов, существовавших в бекствах, и порядке их взимания, размерах, а также о сборщиках налогов, назначаемых эмиром, о роли местных чиновников в сборе налогов с населения и о различных формах протеста и движениях трудящихся против них.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Байсунское бекство, Денауское бекство, Шерабадское бекство, хирадж, закят, уshr и другие.

THE TAX SYSTEM IN THE PRINCIPALITIES (BEKLIKS) OF THE SURKHAN OASIS IN THE MID-19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Annotation

This article explores the functioning of the tax system in the principalities (bekliks) of the Surkhan oasis during the mid-19th and early 20th centuries, as well as its impact on the daily life of the local population. It provides an analysis of the various types of taxes levied in these regions, the procedures and amounts for their collection, and the role of tax collectors appointed by the Emirate. Furthermore, the article sheds light on the involvement of local officials in the tax-gathering process and discusses instances of dissatisfaction and resistance expressed by the working population in response to perceived injustices in taxation practices.

Key words: Emirate of Bukhara, Boysun principality, Denov principality, Sherabad principality (beklik), kharaj, zakat, ushr, taxation system, tax resistance.

Kirish. Bizga ma'lumki, XIX asr o'rtalari va XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Buning asosiy sabablari to'xtovsiz urushlar, amirlik iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligidagi inqirozli holatlar, shuningdek, amirlik va bekliklardagi soliq turlarining ortib borishi hamda mavjud soliqlar miqdorining oshirilishi bo'lgan.

Bu davrda Surxon vohasi bekliklarida ham ijtimoiy-iqtisodiy holat ijobiy deya bo'lmaydi. Asosiy sabablardan biri – amirlikda yuzaga kelgan ichki va tashqi muammolarni hal etish uchun oddiy mehnatkash aholi zimmasiga asossiz ravishda yangi soliqlar yuklatilishi va mavjud soliqlarning miqdori oshirilganidir. Bundan tashqari, amirlikdan tayinlangan soliq yig'uvchilar hamda mahalliy ma'murlar o'z bilganicha, o'zboshimchalik bilan ortiqcha soliq yig'ib olishga urinishi ham muhim muammo hisoblangan.

Adabiyotlar tahlili. Surxon vohasining XIX asr o'rtalari va XX asr boshlaridagi soliq tizimini o'rganishda tarixiy manbalar, monografiyalari, tarixchi olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalariga tayanildi. Xususan, Surxon vohasining ushbu davrdagi tarixini o'rgangan S. Tursunov, E. A. Qobulov, F. Ochilidiev, K. E. Qobilov va boshqa olimlarning izlanishlari muhim manba sifatida xizmat qildi.

Natijalar. Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar joriy etilgan bo'lib, aholi ularni to'lashga majbur edi. Bu soliq va to'lovlar Sherobod, Denov, Boysun kabi Sharqiy Buxoro bekliklaridan ham yig'ib olingan [1]. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida Buxoro amirligida 86 turdagi soliq mavjud bo'lganligi qayd etiladi [2].

Mazkur soliqlarning ayrimlari to'g'risida ma'lumot beradigan bo'lsak, o'sha davrda Buxoro amirligidagi soliqlar ichida eng ahamiyatlisi xiroj bo'lgan. Chunki bu soliq xonlikdagi yerlarning katta qismidan olinardi. Xiroj asosan natura (ya'ni mahsulot bilan) tarzida to'lanardi. XIX asrda yirik shaharlar atrofida va ayrim hududlarda xirojning bir qismi pul shaklida yig'ila boshlagan [3]. Bu soliq amlodkor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda, hosilga qarab belgilangan. Uning hajmi esa hosilning uchdan bir, to'rtinchi, ayrim hollarda beshdan bir qismi ko'rinishida bo'lgan. Dehqonlar amlodkor uchun o'n botmon yerdan yarim pud kafsan solig'ini, dorug'alar uchun esa kafsan-i dorug'a (hosilning kichik qismi) to'lashgan [5]. Bu soliq 2 usulda olingan: 1. "muazzaf xiroji" yoki "xiroji vazifa" – natura va pul shaklida, yiliga ikki marta: bahor va kuzda yig'ilgan; 2. "muqassama xiroji" – yetishtirilgan hosil hisobidan, yerning holatiga qarab, pul hamda mahsulot shaklida, donning bozor

narxiga muvofiq belgilangan. Soliq miqdori mahalliy hukmdor talabiga asosan belgilanardi.

“Risolayi Xabibiya” asari muallifi Ibodullo ibn Xo’ja Orifi Buxoriy xiroj turlari haqida shunday yozadi: “Xiroj ikki turga bo’linadi: muazzaf va muqassama. Xiroji muazzaf – ma’lum. Xiroji muqassama esa olinadigan hosilning 1/3, 1/4, 1/5 qismini yoki davlat rahbari belgilagan miqdorni tashkil qiladi” [4].

Tadqiqotchilar xiroj miqdori yig’ilgan hosilning 1/5 qismidan 1/10 qismigacha bo’lganligini ko’rsatadilar. L. N. Sobolevning ma’lumotlariga ko’ra, Buxoro amirligida xiroji muazzaf quyidagicha olingan:

1 tanob bug’doy ekiladigan yerdan – 2 tanga yoki 15 funt bug’doy;

1 tanob beda – 2 tanga;

1 tanob mevali bog’ – 12 tanga;

1 tanob uzumzor – 18 tanga [4].

Amirlikdagi soliqlardan yana biri zakot, ya’ni mol-mulkdan olinadigan davlat solig’i edi. U mol-mulk bahosining taxminan 1/40 qismida to’langan. Bunday yig’imlarda mol solig’i, shuningdek savdogarlarning mol sotib olish uchun keltirgan pullari daromad manbai sifatida qaralgan. Shuningdek, savdogar o’z molini bir joydan ikkinchi joyga necha marta olib borgan bo’lsa, har safar zakot to’lashga majbur bo’lgan. Bunday hollarda zakot savdogarlar uchun og’ir yuk bo’lib qolgan, iste’molchilarni tashvishga solgan va soliq yig’uvchilarni boyituvchi o’ziga xos ichki bojga aylanib qolgan [3].

Zakot yig’uvchilarning hisobotiga ko’ra, Buxoro amirligida bir yilda: Denov bekligidan – 75 ming tanga, Sherobod bekligidan – 100 ming tanga zakot yig’ib olingan. 1904-yilga qadar Sharqiy Buxoroda zakotning miqdori tartibga solinmagan edi. 1904-yilga kelib zakot miqdori quyidagicha belgilandi: 5 ta yuk tashuvchi tuyadan – 1 bosh qo’y; 40 ta qo’y yoki echkidan – 1 bosh; 100 tagacha qo’y yoki echkida miqdor o’zgaraydi; 101 tadan 201 tagacha bo’lsa – 2 bosh qo’y yoki echki; undan ko’p bo’lsa – har 100 tasidan 1 bosh olinadi. Bundan tashqari, chorvaning ikkinchi yilgi ko’payishi ham hisobga olingan va qo’shimcha zakot undirilgan [1]. Zakot yig’uvchilar ko’pincha uning miqdorini o’z bilganicha oshirib turishgan. Boqiladigan mollar hisobi har 3–5 yilda amirning alohida ko’rsatmasi asosida o’tkazilgan va o’tgan yillar davomida ko’paygan mollar uchun ham zakot olingan. Bunda mollarning o’lishi yoki yo’qolishi hisobga olinmagan [4].

Bu kabi asosiy soliqlardan tashqari, amirlikda juda ko’plab boshqa soliq turlari ham mavjud bo’lgan. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: bo’lak – bojxonaga to’lanadigan soliq; boj – savdo-sotiqdagi soliq; barg puli – ipakchilikdan olinadigan soliq; aminona – suvdan foydalanganlik uchun; bozorda sotiladigan mahsulotlar solig’i; boqiya puli – sug’orish inshootlari uchun to’lov; osiyo puli – tegirmonlardan olinadigan soliq; qayiq puli – daryoda qayiq bilan yurganlik uchun; meragan puli – ovchilardan olinadigan soliq; avarizot – favqulodda olinadigan harbiy soliq; qorachilik – qo’riqchi va mirshablar xarajati uchun; maktab puli – ilm olganlik uchun olinadigan soliq. Bu kabi yig’imlarning umumiy soni 60 dan oshgan [1].

Buxoro amirligida XIX asrdan XX asr boshlarigacha soliqlardan tashqari, bekliliklar aholisidan har xil yig’imlar ham undirilgan. Masalan: nikoh shartnomasini rasmiylashtirishda nikohlanuvchilar qoziga nikohona to’lashgan; muhr qo’ygani uchun – muhrona; bolalar o’qishi uchun – maktab puli; qurilish va daraxtzorlar uchun – uskuna puli; chig’ir orqali sug’oriladigan yerdan – chig’ir puli; magistral kanaldan suv olgani uchun – lobaki puli; ariqlardan suv chiqargani uchun – jo’ya puli; miroblarga – mirobona va h.k. Ushbu yig’imlarning umumiy soni 60 dan oshib ketgan [3].

Amirlikda to’nalishi shart bo’lgan umumiy soliqlardan tashqari, har bir beklilikda qo’shimcha to’lovlar ham joriy etilgan. Har bir bek bu soliqlarni o’z bilganicha belgilagan. Soliq yig’uvchilar esa Buxoro hukumati tomonidan tasdiqlanmagan to’lov va majburiyatlarni ham aholidan talab qilishgan. Mansabdor shaxslar ko’pincha boylik orttirish maqsadida mansablaridan foydalanib, belgilangan miqdordan ikki barobar ko’p soliq yig’ib olishgan. Ma’lumotlarga ko’ra, Denov, Sherobod, Boysun va boshqa bekliliklarda bunday holatlarni ko’plab uchratish mumkin [1].

Denov va Sherobod bekliliklarida XIX asrning 80-yillarida soliq turlari qushbegi hujjatlarida alohida belgilangan bo’lsa-da, beklar ular asosida o’zgartirishlar kiritgan. Masalan: bog’ solig’i, meva solig’i – 1 tanob yer uchun 18 tanga deb belgilangan bo’lsa-da, Sherobod tumanida: 1 tanob bog’ va chorbog’dan – 13 tanga, 1 tanob bedadan – 6 tanga, 1 tanob poliz mahsulotlaridan – 12 tanga. Ammo amlokdorlar bu miqdorlarga amal qilmasdan: 1 tanob bog’dan – 26 tanga, 1 tanob bedadan – 12 tanga soliq olganlar. Bundan tashqari, so’yish puli: 1 qo’y – 20 tanga, 2 echki – 28 tanga qilib belgilangan [6].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, mamlakatdagi barcha iqtisodiy og’irliklar oddiy mehnatkash omma zimmasiga yuklangan edi. Ba’zi adolatli din peshvolari xalqni o’zboshimchalikdan himoya qilishga uringan. Jumladan: Denov qozisi mulla Mir Imomiddin soliq yig’uvchilarning o’zboshimchaliklarini Buxoro amiriga ma’lum qiladi va ularni tartibga solishni so’rab shikoyat xati yo’llaydi. Sherobod bekligida yashovchi dehqonlarning ham rais mulla Mansurbek ustidan amirga yozgan shikoyati mavjud. Unda quyidagilar ko’rsatilgan: rais hunarmandlardan kuniga ortiqcha 1 tanga soliq olayotgani; oldi-sotdi hujjatlari va muhr uchun qozining so’raydigan miqdoridan ortig’ini so’rayotgani; maktab pulini belgilanganidan ko’proq – oyiga 20 tanga olayotgani aytilgan [1].

1885-yil 10-oktabrda Buxoro amiri nomiga Sherobod bekligida bek va amaldorlarning xalqqa o’tkazayotgan zulmi, soliqning haddan tashqari ko’pligi haqida arznoma topshirildi. Amir bu arznomaga javob bermagach, 1886-yil boshida dehqonlar soliq to’lashdan bosh tortdilar. Ularga qishloqlardagi o’rta va quyi amaldorlar ham qo’shildi. Dehqonlar yerlarini tashlab ketishga majbur bo’ldilar [4]. Oldingi shikoyatlardan hech qanday natija bo’lmagach, 1885-yil 31-oktabrda dehqonlar o’zlarining ishonchli vakillarini najot izlab amir huzuriga yubordilar. Ular soliq tizimini tartibga solishni so’rashdi. Biroq bu safar ham amir shikoyatni ko’rib chiqish o’rniga ularni Qarshi shahridagi zindonga tashlashni buyurdi. Ariza va shikoyatlarning ko’pligi Buxoro amirini xavotirga solganligi sababli, u shikoyatlarni tekshirish uchun Buxorodan mulla Sharof Miroxo’rni Sherobodga yuboradi va undan taftish o’tkazishni talab qiladi. O’tkazilgan taftish natijasida aniqlanishicha, soliq yig’uvchilar va amlokdorlar shariat qonunlarini qo’pol ravishda buzgan. Soliq yig’uvchilar belgilangan miqdordan 10 foiz ko’proq soliq yig’ishgan [1].

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, aholining kayfiyati keskin o’zgara boshladi, qo’zg’olonlar muqarrar bo’lib qoldi. Shunday qo’zg’olonlardan biriga denovlik Ernazar Polvon boshchilik qiladi. Bu qo’zg’olonga Denov bekligidagi bir necha qishloq aholisi qo’shilgan. Qo’zg’olon kuchayib borgach, Denov begi Abdurahmon unga qarshi o’zining qurollangan guruhini yuboradi. Qo’zg’olonchilar va bek navkarlari o’rtasida bo’lib o’tgan jangda bek navkarlari mag’lubiyatga uchraydi. Qo’zg’olonchilar Ernazar Polvon boshchiligida Denov qal’asini egallashadi va bir yarim oy davomida uni o’z qo’llarida ushlab turadilar. Bu voqeadan xabar topgan Buxoro amiri o’zining ko’p sonli qurollangan navkarlarini Denovga yuboradi. Ular qal’ani qamal qilib, qo’zg’olonchilarni mag’lubiyatga uchratadilar. Natijada,

qo'zg'olon ishtirokchilaridan 48 kishi qo'lga olinadi va Darband darasida dorga osiladi [1] Bu qiyinchiliklardan charchagan juda ko'plab aholi o'zlarining yashab turgan joylarini tashlab, boshqa hududlarga ketishga majbur bo'lganlar. Misol tariqasida, Turkiston general-gubernatorligi siyosiy agentligi axborotiga ko'ra, Buxoro bekliklarida unumdor yer va suv bo'lishiga qaramay, Hisor, Denov, Ko'lob, Baljuvon bekliklaridagi aholi qishloqlarni tashlab, 1902, 1903 va 1904-yillarda Afg'onistonga ko'chib ketganligi qayd etiladi [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bu davrda Surxon vohasi bekliklaridagi soliq siyosati ancha og'ir va noadolatli

bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablari sifatida: amirlik tomonidan soliqlarning turlari va miqdorining keskin oshirilishi; eski soliqlarning yangidan ko'ra ko'proq miqdorda undirilishi; mahalliy beklar va soliq yig'uvchi ma'murlar tomonidan belgilanganidan ortiqcha miqdorda soliq yig'ilishi; aholidan tasdiqlanmagan, qo'shimcha yig'im va to'lovlar undirilishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ushbu holatlar natijasida oddiy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti og'irlashgan, amirlik va bekliklarga bo'lgan ishonch susaygan, ko'plab norozilik harakatlari, ko'chishlar va qo'zg'olonlar yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Ochilidiyev F. Surxon vohasi bekliklarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. Toshkent, 2008. – 168 b.
2. Niyazmetov I.M., G'iyasov S.A., Fayziyev F.A., Dushanov R.R. Soliq nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2022. – 340 b.
3. Qobilov K. E. Mang'itlar davri savdo aloqlarida Surxon vohasining tutgan o'rni. Toshkent, 2025. – 148 b.
4. Qobulov E. Surxon vohasi xo'jaligi. Toshkent, 2012. – 408 b.
5. Қобулов Э. Бухоро амирлигида солиқ сиёсати. / Сурхондарё: Илм ва тафаккур. – 2022. № 3.
6. Eshov B. J., Odilov A. A.. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent, 2014. – 628 b.
7. Tadjiyeva Y. D. Surxondaryo tarixi. Toshkent, 2022. – 246 b.



UDK: 30.428.304.304,9

Husniddin O'SAROV,
Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: husniddin.o'sarov@gmail.com

NDU dotsenti N.Daminov taqrizi asosida

REGARDING THE UZBEK LANGUAGE NEWSPAPER "YULDUZ" IN AFGHANISTAN

Annotation

This article presents insights based on the analysis of sources and literature about the Uzbek-language newspaper "Yulduz" published in neighboring Afghanistan and its history.

Keywords: press, "Yulduz" editorial office, editor, classical literature, correspondent, writer, article, feature, poem, "Oydin" Uzbekistan press, collaboration, letter, Arabic script, poet, circulation, compatriot, Uzbek immigrant.

О ГАЗЕТЕ "ЮЛДУЗ" НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ В АФГАНИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье на основе анализа источников и литературы представлены размышления об узбекоязычной газете "Юлдуз" издававшейся в соседнем Афганистане, и ее истории.

Ключевые слова: пресса, "Юлдуз" редакция, редактор, классическая литература, корреспондент, творческий деятель, статья, очерк, стихотворение, "Ойдин" пресса Узбекистана, сотрудничество, письмо, арабская орфография, поэт, тираж, соотечественник, узбек-эмигрант.

AFG'ONISTONDAGI "YULDUZ" O'ZBEK TILI GAZETASI XUSUSIDA...

Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'sni Afg'oniston mamlakatida bosilgan o'zbek tilidagi "Yulduz" gazetasi va uning tarixi haqida manba va adabiyotlar tahlili orqali fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: matbuot, "Yulduz", tahririyat, muharrir, mumtoz adabiyot, muxbir, ijodkor, maqola, lavha, she'r, "Oydin", O'zbekiston matbuoti, hamkorlik, maktub, arab imlosi, shoir, tiraj, vatandosh, muhojir o'zbek.

Kirish. 1970-yillarda Afg'onistonda keskin siyosiy jarayonlar tufayli monarxiya tartibi ag'darilib Respublika davlat boshqaruvi o'rnatildi. Ayniqsa, 1978-yil aprel (savr) "inqilobi"dan so'ng, mamlakatda istiqomat qilib kelayotgan millatlar o'rtasida milliy uyg'onish, milliy o'zligini anglash, erkinlik, ozodlik tuyg'ulari yuzaga keldi. Savr "inqilobi"dan so'ng, pushtin va fors-tojik tili davlat tili bo'lishi bilan birga, o'zbek tiliga ham rasmiy til maqomi berildi. O'zbek va turkman tillarida radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar soni ko'payib, Qobul, Mozori-Sharif, Shibirg'on, Tahor kabi shaharlarda nashriyotlarda o'zbek va turkman tilidagi kitoblar chop ettirish kengaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qobuldagi "Oyina" telestudiyasi ko'rsatuvlari o'zbek tilida olib borila boshlandi. 1980-yillarda "Anjuman Vatan" ("Vatan jamiyati") tashkiloti tuzilib, uning qoshida "Zafar" nomida o'zbek qo'shiq va raqs ansambli tashkil etildi. Yuqoridagi o'zgarishlar qatorida 1978-yil "Savr voqealari" dan 21 kun o'tib may oyining o'rtalarida Balx provinsiyasi markazi Mozori-Sharif shahrida Abdulloh Ruyin muharrirligida "Yulduz" nomidagi gazeta o'zbek tilida bosila boshlandi. [1]

Tadqiqotchi olim, professor Nasriddin Nazarov "Yulduz" gazetasi vujudga kelishi bilan bog'liq masalada fikr yuritir ekan: "Yulduz" gazetasi dastlab Afg'oniston poytaxti Qobulda 1978-yilda chop etilib, uning 8 sahifasidan 4 sahifasi o'zbek tilida, 4 sahifasi turkman tilida chop etila boshlagan. Turkman tilida "Gurash" ("Kurash") gazetasi chiqarilganidan so'ng gazeta faqat o'zbek tilida bosilgan. [2] "Yulduz"ning ta'sischi ADP (Afg'oniston Demokratik Respublikasi) hukumati yillarida Afg'oniston adliya vaziri, keyinchalik Bosh prokuror, professor Abulqosim Sha'riy Juzjoniy bo'gan [3].

"Yulduz" gazetasi 1978-1980-yillarda bir oyda 2 marta bosilib, uning tiraji 7300 nusxada chop etilgan.

Gazetaning shioriga hazrat Alisher Navoiyning "Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" so'zlari asos qilib olingan.

"Yulduz" gazetasi sahifalarida o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otinning nasriy va nazmiy asarlari bosilgan. Gazeta zamonaviy adabiyot darg'alaridan G'ofur G'ulom, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov asarlaridan parchalar berib brogan. O'sha yillarda Afg'onistonda faoliyat yuritgan tasavvufshunos olim Orif Usmon "Yulduz" sahifalarida maqolalar bilan ishtirok etgan.

"Yulduz" gazetasida afg'onistonlik o'zbek ziyolilari va ijodkorlarining she'r, maqola, qissa, hikoyalari ham bosilgan. Afg'onistonlik ijodkorlardan Said Akmaliddin Parvona, Sharafiddin Sharaf, (Domla Beki), Qori Muhammad, Sadriddin Intizor, Shafiqa Yorqin, Fayzullo Aymoq, Abdulloh Toshkin, Uchqun, Qori Sharafiddin, Hofiz Sulaymon kabilarning ijod namunalari gazeta sahifalarida doimiy berib borilgan[4].

"Yulduz" gazetasi o'zining doimiy obunachilariga ega bo'lib, ayniqsa Afg'onistonning o'zbeklar zich istiqomat qiladigan 10 dan ortiq viloyatlariga tarqatilgan. Gazeta tahririyatida afg'onistonlik ziyoli o'zbeklardan Ashraf A'zam, Muhammad Amin, Toji Muhammad Zikrillohlar samarali faoliyat yuritganlar. Gazeta mushtariylarga Afg'onistondagi o'zbeklar va O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida "Xabarlar" ryknida ma'lumot berib borgan. "Yulduz" ning "Maktublardan satrlar" rukni ostida tahririyatga yo'llangan, turli provinsiya (viloyat) lardan yuborilgan xatlar e'lon qilib borilgan. "Yulduz" orqali Afg'onistondagi bir qator muhojir o'zbeklar va ularning avlodlari O'zbekiston viloyat va shaharlaridagi qarindoshlarini topishga muvoffaq bo'lishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Afg'onistonda bosilgan "Yulduz" va "Gurash" gazetalarini tahririyati O'zbekiston matbuot organlari va ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, muxbirlar bilan kasbiy va do'stona aloqalar o'rnatdilar. O'zbekistondan "Yulduz" gazetasi tahririyati manziliga "Sharq Yulduzi", "Guliston", "Saodat" kabi jurnallar, "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetalarining sonlari yuborildi. Ayniqsa, maxsuslashtirgan jamoat tashkiloti hisoblangan "O'zbekiston chet ellar bilan do'stlik va madaniy aloqalar o'rnatish jamiyati" (O'zODKS-1958-yil tashkil topgan) matbuot organi bo'lgan "Sovet O'zbekistoni" (keyinchalik O'zbekiston kontakt) jurnali muntazam yuborib turilgan e'tiborga loyiq. Ushbu jamiyatning "Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa bo'limi" (keyinchalik, 1977-yildan "Vatan" jamiyati) ning nashr organi "Oydin" gazetasi (1968-yildan arab va lotin imlolarida o'zbek adabiy tilida 4 sahifada bosilgan) bilan "Yulduz" ijodiy aloqalar o'rnatdi. [5] "Oydin" gazetasi xorijdagi o'zbeklar uchun "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas" shiori ostida bosilib, arab imlosida 6650 nusxa, lotin imlosida 650 nusxada chop etilgan[6].

"Yulduz" gazetasi bosh muharriri Abdulloh Ro'yin tajriba orttirish maqsadida 1980-1990-yillarda bir necha bor O'zbekistonda bo'ldi. U O'zbekiston ijodkorlari, matbuot xodimlari bilan uchrashuvlarda, o'zaro muloqotlarda o'z gazetasi uchun materiallar to'pladi. Ayniqsa, "Oydin" gazetasida bosilgan O'zbekiston iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy hayotiga oid maqolalarni "Yulduz" ning turli sonlarida chop ettirdi[7].

Shuningdek, "Yulduz" ning turli sonlarida bosilgan Afg'oniston o'zbeklarining maqola va maktublari, badiiy ijod namunalari "Oydin" sahifalarida e'lon qilindi.

Tahlil va natijalar. Arxiv hujjatlaridan birida "Yulduz" gazetasi va turkman tilida bosiladigan "Gurash" gazetalarini "Oydin" dan tashqari, arab va fors tilida, Suriya va Afg'onistonda chiqadigan "Al-Baas", "Al-furson", "Haqiqati inqilobi saur" kabilar bilan ijodiy aloqalar o'rnatgani, o'zaro materiallar almashib turgani haqida ma'lumotlar keltirilgan[8].

"Yulduz" gazetasida faol ishtirok etgan, o'zining she'r va to'plangan xalq og'zaki ijodi namunalari gazetada sahifalarida chop etilib borgan Qobullik filolog olim Fayzullo Aymoq "Oydin" gazetasiga yo'llagan maktublaridan birida: "Oydin" va "Yulduz" gazetalarining shinavanda (muxlis) lari Afg'onistonda talaygina. Bu gazetalar o'zbek o'quvchilari tomonidan zavq-shavq bilan mutolaa qilinadi. Maqola, lavha, o'zbek adiblarining ijodi ilhom baxsh bo'lyapti. Xususan, o'zbek adiblari ijodini afg'onistonlik o'zbeklar benihoya sevadilar"[9] - kabi iliq fikrlarni bildirgandi. F.Aymoq o'z maktubida gazetalaridagi matnlarda imloviy xatolarga yo'l qo'yilganligi, afg'onistonlik o'zbek ziyolilari va ijodkorlarining ijod namunalari oz e'lon qilinganligini ham eslatib o'tishni unutmagan.

Afg'onistonda 1990-yillar 2-yarmidan boshlab kechgan keskin siyosiy jarayonlar, tolibonlar hukumati vujudga kelishi kabilar "Yulduz" gazetasi faoliyati pasayishiga olib keldi. 2010-yillardan boshlab "Yulduz" tiraji 1500-2000 donadan 300 donaga tushib qoldi. Gazetaning 4 beti o'zbek tilida, 4 beti pushtun tilida bosilib, oyda bir bora chiqadigan bo'lib qoldi. Hozirda gazeta davlatga qarashli bo'lib, mamlakatdagi Chegara va qavmlar Vazirligi moliyalashtiradi.

Qayd qilish o'rinli bo'lardiki, "Yulduz"dan tashqari Afg'onistonning poytaxt shahri Qobulda xususiy nashr hisoblangan "Oydin-Afg'oniston" gazetasi o'zbek tilida 1000 nusxada bosilmoqda. Yana bir o'zbek tilidagi gazeta mamlakatda Bobur jamg'irmasi mablag'lari hisobidan Shibirg'on shahrida 2000-yildan bosila boshlandi. Bu gazeta bir oyda bir bosilib, "Ezgu tuyg'u"- deb nomlangan va tiraji

1000 nusxadadir. Gazetaning hajmi ham yurikroq bo'lib, 8 sahifani tashkil etadi[10].

Keyingi yillarda turkman tilida bosiladigan "Gurash" gazetasining tiraji ko'payib, 2000 nusxani tashkil etgan holda, "Yulduz" ning tiraji 300 nusxaga tushganligi achinarlidir.

"Yulduz" gazetasiga Qobul, Mozori-Sharif, Shibirg'on, Juzjon, Samangan provinsiyasi va shaharlaridan mualliflik maqolalari va she'rlar kelib turadi. Qobuldagi "Oyna" telestudiyasi ko'rsatuvlarida "Yulduz" muxbirlari ishtirok etib kelmoqda. 1980-yillarda Shimoliy Afg'onistonning Balx viloyatida o'zbek, pushtun, fors-tojik tillarida "Nidoi islom" ("Islom nidosi") nomi ostida gazeta bosilib, uning ta'sischi Afg'onistondagi o'zbek generali Abdurashid Do'stum bo'ldi. Bu gazeta ham muntazam chiqib turmadi.

"Yulduz" gazetasining chiqarilishi bilan bog'liq omillardan biri 1978-yil mayda ADP Inqilobiy Kengashining 4-dekreti bo'lganligiga ham e'tiborni qaratish mumkin. Ushbu dekret bilan Afg'onistondagi millat va elatlar tillarida o'quv darsliklari va qo'llanmalar chop etish, boshqa millatlarga o'z ona tilida ta'lim olishga ruxsat etildi. O'zbek va beluj tilida teleko'rsatuv, radioeshittirishlar joriy etildi. Afg'oniston xalqini majburiy pushtun tilida o'qitish bekor qilinib, ushbu tilni bilganlarga joriy etilgan moddiy va boshqa imtiyozlar bekor qilindi. Bu esa, o'zbek tilida "Yulduz" turkman tilida "Gurash" gazetalarini nashr etilishini zaruratga aylantirdi, [11] - deb hisoblaydi afg'onshunos olimlar.

Ta'kidlash joizki, 1978-yil aprel siyosiy voqealaridan so'ng 1981-yilga qadar (3 yil davomida) barcha tillardagi gazetalar tiraji, ayniqsa "Yulduz", "Gurash", "Sulh" (Sabaya, beluj tilida) kabilar 3 marta ko'paygan va Afg'onistonning 4/3 qism provinsiyalari bo'ylab tarqalgan[12].

"Yulduz" gazetasi bilan bir davrda "Gurash" va "Sulh" kabilaridan tashqari, Afg'onistondagi ayrim xalqlarning 5 tilida oynoma (jurnal)lar ham chiqa boshlagan. Negadir, 1985-yilda O'zbekistonga ijodiy safar bilan kelgan "Yulduz" bosh muharriri Abdulloh Ro'yin "Yulduz" Savr inqilobidan 25 kun keyin (aslida 21 kun)chiqa boshladi deb, xabar bergandi[13].

"Yulduz" bizningcha Afg'onistonda nashr etilgan yagona o'zbek tilidagi matbuot organi bo'lmagan. Afg'oniston fuqarosi Farid Asadulla 1990-yillarda O'zbekiston Madaniyat instituti reissyorlik fakultetida tahsil olgan. U asli Afg'onistonning Juzjon provinsiyasi Shibiyn uezdidan bo'gan o'zbeklardan. Farid Asadulla 1995-yil 28-dekabrda O'zXAMA ning xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa bo'limi rahbari Zuhridin Husniddinov bilan o'zaro muloqotda: "Afg'onistonda o'zbek hamda fors tillarida "Uchqun" nomi bilan gazeta chiqib turibdi. Gazetada men ham maqolalarim bilan ishtirok etaman"[14]- deb xabar bergan.

"Yulduz" gazetasi va uning muxbirlari faoliyati AQSHgacha yetib borganligini isbotlovchi dalillar arxiv hujjatlarida uchraydi. AQSH da "Chapandoz" nashriyoti direktori va "Chapandoz" oynomasi asoschisi, Afg'onistondan borib qolgan Ergash Uchqun 1990-yillarda yuqorida fikrni tasdiqlovchi ma'lumotlar keltirgan. "Yulduz" da maqolalar bilan ishtirok etgan Afg'oniston o'zbeklaridan filolog olim Fayzulla Aymoq va huquqshunos olim Abdulhakim Sha'riy Juzjoniylar "Chapandoz" da bir qator maqolalarini chiqarishgan,[15] "Chapandoz" oynomasini O'zbekistonga yuborish tashkil etilgan holda, O'zbekistondan "Oydin" gazetasi va "Ўзбекистан контакт" jurnali, Afg'onistondan "Yulduz" gazetasi ham "Chapandoz" manziliga yetkazilgan.

Xulosa qilib aytganda, Afg'onistondan yurtimizga kelgan o'zbek ziyoli va matbaachilari O'zbekistonda arab imlosida o'zbek tilida gazeta chop etish taklifini ham ilgari surishgan. Bunday takliflar boshqa Sharq mamlakatlaridagi o'zbeklar tomonidan ham ilgari surilgan. Suriya Arab

Respublikasidan O'zbekistonga tashrif buyurgan (1994-yil) o'zbek-vatandosh Muhammad al-Buxoriy xorijdagi o'zbeklar uchun yurtimizda arab tilida "O'zbekiston" nomi bilan gazeta nashr etish taklifini ilgari surgan. Hatto istiqbolda bosiladigan gazeta tahririyati Nizomini ham ishlab chiqqandi.

Yildan-yiga "Yulduz" gazetasi yangidan-yangi ruknlar bilan boyib bordi. Gazeta ayrim sonlari bilan tanishish orqali unda "Qo'shiqlar", "So'zvonlar", "Xalq folklorlaridan" kabi ruknlar faoliyat yuritganligiga amin bo'lindi. Yuqorida ko'rsatilgan ruknlar ostida afg'on o'zbeklari orasida keng tarqalgan qo'shiqlar, matal va maqollar e'lon qilib borilgan.

Shunday qo'shiqlardan biri "Yulduz" ning 1985-yil avgust sonida bosilgan "Andxo'yni qolindari" dir. Xalq og'zaki ijodi hisoblanmish bu she'rda:

"Qizil olmaning naqshi,
Balongni olay baxshi, og'ajon
Qolinni to'qimoqqa,

Baxudo Andxo'y yaxshi, og'ajon,
Alnokkadan to'nlari,
Sayraydi bulbullari
Chaqir ochilgan gullari
Oqu-qizil rang-barang
Andxo'yni qolindari, og'ajon.
Yoxud chorvachilik bilan bog'liq termalardan birida:
Qo'y boqdim, qo'chqor boqdim,
Sirg'asiga zang taqdim.
Parijonni istarib
Cho'llarga chiroq yoqdim"-kabi misralar bor.
Afg'on o'zbeklari maqollaridan "Vatanning
vayronasi-umrning g'amxonasi", "Boyni kelini bo'lguncha
kambag'alning qizi bo'l", "Odob boshi til", "Mehnatdan
qo'rqma, minnatdan qo'rq" va hokazolarni ko'rsatib o'tish
mumkin.

REFERENCES

1. Nishonov M. Yulduz-tinchlik elchisi. // Sharq Yulduzi. 1991. №2.-201-202.
2. Nazarov Nasriddin. Afg'oniston o'zbeklari.-Toshkent-2011.-B.50. (134)
3. Abulqosim Sha'riy Juzjoni-1934-yilda Afg'onistonda tavallud topgan, Qobul universiteti huquqshunoslik fakultetini tugatgan, ADR hukumati yillarida mas'ul vazifalarda ishlagan, afg'onistonlik o'zbek farzandi. O'zbekistonga ko'chib o'tgan, hozir O'zbekiston poytaxti Toshkenda yashaydi. O'zMA, P-2822-fond, 1-ro'xat, 34-yig'ma jild, 34-35-varaqlar
4. Orif Usmon. Bodi sabolardan kutilgan mujda // Muloqot; 1991.-№8.-B. 55-59.
5. O'zMA, P-2661-fond, 1-ro'yxat, 233-yig'ma jild, 10-varaq.
6. O'zMA, P-2661-fond, 1-ro'yxat, 222-yig'ma jild, 45, 46-varaqlar.
7. "Oydin" gazetasi 1988-yil dekabr, 1990-yil may.
8. O'zMA, P-2822-fond, 1-ro'yxat, 34-yig'ma jild, 47, 48-varaqlar
9. O'zMA, P-2822-fond, 1-ro'yxat, 38-yig'ma jild, 44-varaq, "Oydin" gazetasi, 1988-yil dekabr soni.
10. Nasriddin Nazarov. Afg'oniston o'zbeklari, Toshkent-2011.-B.50. (134 bet)
11. Boboxo'jayev M. Ochilidiyev D. Afg'oniston: inqilob himoyasi va bunyodkorlik yo'lida. – Toshkent: Fan; 1987. – B.21 (48 bet)
12. История Афганистана с древнейших времён до наших дней/ Отв. Ред. Ю.В Банковский; Москва: Мысл.-с.346 (368 стр)
13. O'z MA, P-2822-fond, 1-ro'yxat, 39-yig'ma jild, 44-varaq.
14. O'z MA, M-2-fond, 1-ro'yxat, 153-yig'ma jild, 152, 153-varaqlar.
15. O'z MA, M-2-fond, 1-ro'yxat, 216-yig'ma jild, 49-varaq.



UDK: 902. 6(575.151)

Odiljon XAMIDOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD
Toshhurdi XOLIYOROV,
Termiz davlat universiteti magistranti
Email: odiljon-21@mail.ru, xoliyovtoshhurdi20010@gmail.com

PhD Q.Toshaliyev taqrizi asosida

ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF BANDIKHAN DISTRICT

Annotation

Currently, the modern methods of archaeological research indicate that a number of works need to be carried out to create an archaeological map of the region. The comprehensive database for the archaeological map of Surkhandarya region is being prepared. Archaeological maps and catalogs are being developed based on districts and archaeological periods. It is provided scientific information about the archaeological monuments of the Bandixan district in this article.

Keywords: Surkhandarya region, Bandixan district, archaeological monuments, chronology, archaeological map, catalog of monuments.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ БАНДИКХАНСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В настоящее время применение современных методов в археологических исследованиях указывает на необходимость создания археологических карт различных регионов. Завершается подготовка базы данных по археологической карте Сурхандарьинской области. Археологические карты и каталоги создаются в разрезе районов и археологических эпох. В данной статье представлена информация об археологических памятниках Бандикханского района.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Бандикханский район, археологические памятники, хронология, археологическая карта, каталог памятников.

BANDIXON TUMANI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

Annotatsiya

Hozirgi kunda arxeologik tadqiqotlarning zamonaviy uslublarda borilishi doirasida hududlarning arxeologik xaritasini yaratish bo'yicha bir qator ishlar olib borilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Surxondaryo viloyati arxeologik xaritasini tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar bazasi to'liq tayyor bo'lmoqda. Tumanlar va arxeologik davrlar kesimida arxeologik xarita va katalog tayyorlanmoqda. Quyidagi maqolada Bandixon tumani arxeologi yodgorliklari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Bandixon tumani, arxeologik yodgorliklar, xronologiya, arxeologik xarita, yodgorliklar katalogi.

Kirish. Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani 1992-yil 18-mayda tashkil etilgan bo'lib, 2010-yil moliyaviy kamchiliklar tufayli tugatilib, Qiziriq tumani tarkibiga birlashtirilgan. 2019-yil 18-oktabrga kelib alohida tuman sifatida qayta tuziladi. Bandixon tumani hududi asosan g'arbda shimoldan sharq va janubga tomon pasayib boradigan Surxon-Sherobod dashtlarining shimoliy qismida joylashgan. Tuman hududida asosan janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalgan Sherobod-Sariqamish tog'lari va Bandixon-Qiziriq adiri bor. Tumanning shimolidan Bandixon soyi oqib o'tadi[9].

Tumanga nom bo'lgan bandixon so'zi fors-tojik tilida "xon tomonidan qurilgan suv to'g'oni" ma'nosini anglatadi[5]. Bandixon aslida qisqich darada qurilgan to'g'on (band) ning nomi. Bandixon to'g'oni qurilgan dara Boysunsoy vodiysi Takasakirdi tizmasini kesib o'tgan joyda joylashgan. Uning uzunligi 10-12 km, tagining eng tor joyi 8-10 metr. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, to'g'on XVI asrda shayboniylardan bo'lgan Abdullaxon II (1534-1598) tomonidan pishiq g'ishtdan qurilgan va unga mahalliy xalq Bandixon nomini bergan. Uning eni 30-35 metrni tashkil qiladi[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mil.avv. VII-VI asrlarga oid Bandixon vohasidagi sun'iy sug'orishga oid kanal qoldiqlari va tuman hududida joylashgan shahar xarobalarining topilishi arxeolog olimlarning e'tiborini tortmasdan qolmadi. Bandixon tumanining o'rganilishi dastlab, O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasining 1960-

yillardagi tadqiqotlari bilan bog'liq edi. Bu ma'lumotlar asosida 1970-yillarda G.A.Pugachenkova arxeologik izlanishlarni vohada amalga oshirdi.

E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev bu hududda XX asrning 70-yillarida arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. E.V.Rtveladze bu hududdan uch tarixiy davr (ilk temir, antik va ilk o'rta asrlar) ga oid yodgorliklar majmuasini aniqlagan. E.V.Rtveladze 1972-1975-yillarda tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, 1973-yilda 15 kun davomida Xo'jasoat qishlog'idan Istaragacha, Bandixon darasi, O'rg'ulsoyda qidiruv tadqiqotlari, 1974-yilda 1 oy davomida Bandixon oazisida tadqiqotlar, BT-1 va BT-2 yodgorliklarida qazishmalar, qidiruv tadqiqotlari, 1975-yilda 1,5 oy mobaynida Yalanto'shtepadagi kushon davri qabristonida qazishmalar va 1,5 oy mobaynida Qoratog', O'rg'ulsoy va Tentaksoyda qidiruv tadqiqotlari, 1,5 oy mobaynida G'ozimullatepa shurf solgan, Sariband yaqinidagi qo'rg'on qabristonda tadqiqotlar olib borgan[7].

2000-yillar boshida Germaniya arxeologiya instituti (DAI) va San'atshunoslik instituti (N.Boroffka va L.M.Sverchkov rahbarligida) Bandixon tumani arxeologik yodgorliklarini o'rganishadi natijasida bu yodgorliklarning xronologik davriga oydinlik kiritildi. Ushbu ekspeditsiya tarkibida V.V.Mokrobodov G'ozimullatepa va Kindiktepa yodgorliklarida qazishmalar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Qiziriqdara dashtida joylashgan Bandixon vohasida bir-biriga parallel O'rg'ulsoy va Bandixonsoy oqib o'tgan. Bu voha ilk bor so'nggi bronza davridan boshlab, qadimgi dehqon jamoalari tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Bandixon tumani hududida bir qancha arxeologik yodgorliklar topib o'rganilgan. Bandixon I (Maydatepa), Bandixon II (Bektepa), Bandixon III (G'ozimullatepa), Kindiktepa, Yalangto'shtepa, Dortosh (juma bozori), Qo'rg'on, Nomsiztepa, Sarband va Xonbandi to'g'oni yodgorliklari shular jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli Qarori 1-ilovasi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati" da Qiziriq tumaniga 21 ta obyekt kiritilgan bo'lib, ularning 17 tasi arxeologik yodgorlik hisoblanadi. 17 ta arxeologik yodgorlikdan 10 tasi Bandixon tumani hududiga to'g'ri keladi.

Ushbu ro'yxatda bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Bandixon I (Maydatepa), Bandixon II (Bektepa), Bandixon III (G'ozimullatepa) yodgorliklari uch o'rinda emas, balki, 6 o'rinda keltiriladi[4].

1 (207). Bandixon I (Maydatepa). Bandixon shahrining janubiy-g'arbiy qismida, O'rg'ulsoy (Bandixon soyining irmoqlaridan biri) o'ng qirg'og'ida joylashgan. Yodgorlikning umumiy maydoni 1,6 ga (250x70 m) bo'lib, qadimiy kanal bilan ikkiga ajralgan: sharqiy (90x80 m, balandligi 5-7 m) va g'arbiy (180x50 m, balandligi 2 m) qismlardan iborat bo'lgan[13]. 1973-1975-yillarda O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi Bandixon I da qazishma ishlari amalga oshirgan. Bu vaqtda turar joyning sharqiy qismida qabriston bo'lgan, shuning uchun shimoliy-g'arbiy va janubiy-g'arbiy qiyaliklaridagi bo'sh yerlarda qazishma ishlari olib borildi. Shuni ta'kidlash kerakki, Bandixon I ning quyi qatlamlarida, asosan, bezatilmagan, qo'lda yasalgan sopollar topilgan bo'lsa, yuqori qatlamdan naqsh bilan bezatilgan sopollarning foizi nisbatan ko'p (5-6%). Turarjoyning dastlabki sanasi mil. avv. XI-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu xronologiya yodgorlikning ichki stratigrafiyasidan, shuningdek, analogiya (o'xshashlik) va sinxron turarjoylarni (Tilla-tepa, Kuchuk-tepa) radiokarbon usulidan kelib chiqib qabul qilingan. E.V.Rtveladze bu yodgorlikdan topilgan tosh va sopol topilmalarni mil. avv. II mingyillik oxiri va I mingyillik boshiga oid deb belgilagan[10]. Germaniyalik olimlar tadqiqotlarida mil. avv. 1400-1000-yillar bilan davrlashtirilgan[2].

N.Boroffkaning Germaniyadagi hisobotlarida yodgorlikka quyidagicha ta'rif beriladi: Bandixonsoyning irmoqlaridan biri bo'lgan O'rg'ulsoyning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, U shaklidagi qorg'on hisoblanadi. Madaniy qatlam qalinligi 3,5 m gacha yetadi va quyi qatlam Yaz I davriga o'g'ir. Topib o'rganilgan sopol buyumlarning katta qismini qizil va qora rangli, qo'lda yasalgan sopol idishlar tashkil etadi. Bundan tashqari bronza buyumlar (asosan zargarlik), shisha parchalari va inson haykallari topib o'rganilgan. Maydalanuvchi toshlar va don qoldiqlari aholining chorvachilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi[1:135-137].

2 (208). Bandixon 2 (Bektepa). 1972-yilda E.Rtveladze tomonidan aniqlangan. Bandixon I dan chuqurligi bilan ajralib, g'arbda 47 km. da joylashgan, umumiy maydoni (13 ga). Uch qismdan iborat: hamma tomoni devor bilan o'ralgan, kvadratsimon shakldagi (120x110m) yodgorlik. G'arb va shimol tomonidan uning qirralarini saqlanib qolgan. Janubiy-sharqiy va shimoliy-g'arbiy burchaklarida yarim

aylana shakldagi minoralarni sezish mumkin. Ikkinchi qismi birinchisidan kengligi 30 m li zovur bilan ajralib, unga nisbatan janubiy-sharqda joylashgan. Uchinchi qismi birinchi ikkitasiga nisbatan shimoliy-g'arbda va shimolda joylashgan bo'lib, ulardan zovur yoki kengligi 2 m li vaqtinchalik daryo o'zani bilan ajralib turadi. Bu yodgorlik tabiiy do'nglikda joylashgan va O'rg'ulsoyning o'zani bilan chegaralangan. Bo'yama naqshli sopollar topilmagan, qo'lda yasalgan idishlar Bandixon I dagiga nisbatan ancha kam (20% dan kam) topilgan va tumshuqsimon bandli idishlardan ko'p foydalangan (Yaz II, mil. avv. VIII-VI asrlar). Z.A.Xakimovning Bandixon tepa II yodgorligida amalga oshirgan qazishmalari natijasida 2 m qalinlikdagi paxsa devor, diametri 7-8 m, qalinligi 1.9 m li oval shaklda minoralar joylashganligini aniqladi. Minora devorlarining burchaklari toshlar bilan to'lib qolgan, devorlar buzilgan va kuchli yong'in sodir bo'lgan. Buni kuygan qatlamlar va minora ichidagi ko'mirga aylangan daraxt bo'laklari tasdiqlaydi[15; 10].

N.Boroffkaning Germaniyadagi hisobotlarida yodgorlikka quyidagicha ta'rif beriladi: Maydatepadan 250 m shimoliy-g'arbda joylashgan to'rtburchak shakldagi (taxminan 100x120 m), devor xarobalarining balandligi 2 m gacha keladigan qo'rg'on bo'lib, yodgorlikning eng quyi qatlamlaridan Yaz II A sopol buyumlari va ko'p miqdorda hayvon suyaklari (asosan qoramol) qoldiqlari topilgan. Quyi qatlamdan qazib olingan sopol idishlar Maydatepadan topilgan sopollar bilan deyarli bir xil shaklda uchraydi[1].

Bu yodgorlik 2005-2006 yillarda arxeologik tadqiqotlar natijasida o'rganilgan bo'lib, Arxeolog olimlar Bektepa va Kindiktepa yodgorliklarini bitta aholi maskani deb hisoblaydi[15].

3 (209). Bandixon 3 (G'ozimullatepa). Bandixon soyining qarama qarshi, chap qirg'og'ida, Bandixon shahrining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. Bu yodgorlikdan hozirgi vaqtgacha balandligi 2 m, uzunligi 50 m, kengligi 20-25 m li yarmi buzilgan tepalik saqlanib qolgan. Tepalikning shimol tomoni (400-500 m gacha) va sharq tomoni (200-300 m gacha) ko'chalarida sopol buyumlar uchrab turadi. Yodgorlik hududida xandaq (jarlik) qazilayotgan vaqtda shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbga boruvchi umumiy uzunligi 30 m dan oshiqroq bo'lgan sopol quvurlar (mil. avv. VI-IV asrlarga oid.) topilgan. Diametri 18-20 sm li quvur qoldiqlari hali ham tepalik yonida uchrab turadi[13]. Keyinroq tepalik markazida 2,5 m qalinlikdagi madaniy qatlam aniqlangan. G'ozimullatepadan topilgan sopollar solishtirilganda 0,5 km janubiy-g'arbda joylashgan va Bandixon II sopollari bilan o'xshashligi aniqlandi. Bandixon qishlog'ida 3 xil madaniyatni ko'rsatib turuvchi joylar: Bandixon I, II, III mavjud bo'lib, har birida aholi faqat bir davrda yashagan. Ammo ularning yemirilishi va aholining boshqa joylarga nima sababdan ko'chib ketganligi aniqlanmas[12].

N.Boroffkaning Germaniyadagi hisobotlarida yodgorlikka quyidagicha ta'rif beriladi: Bandixon shahri, O'rg'ulsoyning chap qirg'og'i, Maydatepadan 900 m shimoliy-sharqda joylashgan. Bu yodgorlik to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchami 60x30 m, balandligi 4 m. Keramik buyumlar 200-300 m radiusda joylashgan. Tadqiqotlar natijasida umumiy qalinligi 3,6 m bo'lgan 9 ta madaniy qatlam aniqlangan. Qazishmalar davomida bu yerdan sopol idish parchalari, metall va tosh buyumlar aniqlangan. Yaz IIB davriga oid bo'lgan bu yodgorlik E.Rtveladze tomonidan o'rganilgan.

4 (212). Dortosh (juma bozori). Mil.avv. I mingyillikka oid yodgorlik bo'lib, Bandixon tumanining markazida joylashgan. Yodgorlik bo'yicha ma'lumotlar adabiyotlarda uchramaydi.

5. (213). Qo'rg'on. II-III asrlarga oid yodgorlik bo'lib, hali to'liq o'rganilmagan.

6 (215). Nomsiztepa. O'rg'ulsoyning o'ng qirg'og'ida Bandixon qishlog'idan shimoliy-sharqqa 7 km, Sariband tog'onidan janubga 2 km da joylashgan. Bu yodgorlik kvadrat shaklda (30x30m), devorlari qalinligi 3-6 m, balandligi 3 m.gacha yetadigan, unchalik katta bo'lmagan qal'a. Janubiy-sharqiy tomon markazida daryoga tushadigan darvoza bor[19]. Sopol buyumlar deyarli topilmagan, tadqiqotlar natijasida bu yodgorlik taxminan IX-XI asrlarga oidligi aniqlandi.

7 (216). Sariband. Bandixonsoyning o'ng qirg'og'ida, taxminan 10 km shimoliy-sharqda joylashgan aholi maskani bo'lib, mil. II-III asrlarga oid arxeologik yodgorlik.

8. Kindiktepa. Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilmagan, sababi Bandixon II yodgorligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bandixon tepa II yashash joyining shimoliy-sharqiy qismida, uning qal'asidan 300 m uzoqlikda joylashgan yodgorlik bo'lib, bu yerdan arxeologlar so'ngi ahamoniy davri va Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari davriga oid bo'lgan otashxona (olov ibodatxona) qoldiqlarini topishgan. Binoning umumiy o'lchami 18x22,5 m bo'lgan. Majmua 3 ta bir-biriga bog'liq qismdan iborat: katta to'g'ri to'rtburchakli markaziy xonaga yo'lak bo'ylab shimoliy-sharqdan kirish qismi ikkita tor xona va altar sifatida tushiniladigan va to'rtta ustun orqali chegaralangan kamin bilan egallangan (sharqiy xona o'lchami 2.7 x 14 m (1-pol), 2.1 x 22.5 m (2-pol) va janubiy xona o'lchami 2 x 12.5 m). Binoga janubiy-sharqdan kirilgan.

Madaniy qatlam qalinligi 4,6 m gacha yetadi. Ibadatxonaning asosiy xususiyati puxta qurilganligi, majmuaning monumentalligi, altar (qurbonlik) uchun maxsus ustunlar bilan jihozlanganligi bilan ajralib turadi. Tashqi devorlarning qalinligi 2,5 m gacha yetadi[3].

9. Yalangto'shtepa – Bandixon shahri shimoliy-sharqiy qismida, Bandixonsoyning chap qirg'og'ida joylashgan shaharcha va qabriston (mil. avv. II-I, milodiy VII-VIII asrlar) bo'lib, bu yodgorlik 1973-yilda E.V.Rtveladze tomonidan aniqlangan. Umumiy maydoni 30 gektarga yaqin bo'lib, shimoldan janubga qadar uzunligi 200 m. bo'lgan. Shahar uch qismga bo'lingan: qo'rg'on, shahriston va qabriston. Qo'rg'on to'g'ri to'rtburchak tarxli (110x100 metr), devor va xandaq bilan o'ralgan. Qo'rg'onning janubiy tarafida darvoza, burchaklarida yarim aylana shaklli minoralari bor. Markazida kvadratsimon (110x100 m) shakilda, balandligi 8-10 m. li devorlar bilan o'ralgan. Kushon davriga oid sopol idishlar, terrakotadan yasalgan ma'budaning boshi, Arfa chalayotgan qiz haykalchasi topilgan. Bu yodgorlik antik davr va ilk o'rta asrlarga tegishli.

Xulosa va takliflar. “Bandixon tumanidan topilgan tarixiy-arxeologik manbalarga asoslanib, voha hududida ziroatchilik bilan shug'ullanish usullari nihoyatda qadimiy va an'anaviy ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yodgorliklarning eng qadimiylari so'ngi bronza va ilk temir davrlariga oid. Bandixon tumanida XX asr 70-yillaridan – hozirgi kungacha arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. “Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati”da Bandixon I – Maydatepa, Bandixon II – Bektepa, Bandixon III - G'ozimullatepa yodgorliklari alohida-alohida tartibda keltirilgan, ammo bu yodgorliklar bir hisoblanadi. Shuningdek bu ro'yhatda Yallangto'shtepa yodgorligi kiritilmagan. Istiqbolda Bandixon tumanining arxeologik xaritasini tarixiy va arxeologik adabiyotlardan foydalanib, shuningdek, qidiruv, vizual qayta kuzatish asosida yangilangan holda qayta tuzish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Boroffka N. Bandichan, Surchandar'ja, Usbekistan. DAI, eForschungsberichte 2015., P. 135-137
2. Görsdorf J. Information zu den 14C-Datierungsergebnissen von Majdatepa (Bandixon I) // ТБНЭ. Вып. 3. 2007. С. 132.
3. Mokroborodov, V. “Kindyktepa”, in: Encyclopaedia Iranica Online, © Trustees of Columbia University in the City of New York. Consulted online on 14 March 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi 846-sonli Qarori 1-ilovasi “Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati”.
5. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. -Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
6. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T. va boshq. Surxondaryo tarix ko'zgasida. Toshkent: Sharq, 2000.
7. Академик Эдвард Васильевич Ртвеладзе. Биобиблиография. – Ташкент, 2012. – 80 с.
8. Бандихон // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: 2000.
9. Бандихон тумани // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: 2000.
10. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). Т.: “ФАН”, 1990.
11. Ртвеладзе Э. В. Археологические исследования в Бандыхане в 1974–1975 гг. // ТБНЭ. Вып. 3. 2007. С. 67–95.
12. Ртвеладзе Э. В. Новые бактрийские памятники на юге Узбекистана // ИМКУ. Вып. 21. 1987. С. 56–66.
13. Ртвеладзе Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана // БД. 1976. С. 93–103.
14. Сагдуллаев А.С. Древнеземледельческие поселения предгорий Байсунтау // История и археология Средней Азии. Ашхабад. 1978. С. 30–36.
15. Сагдуллаев А.Р. Основные черты и генезис культуры доантичной Бактрии // Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. Ташкент, 1989.
16. Сверчков Л. М., Бороффка Н. Археологические исследования в Бандыхане в 2005 г. // ТБНЭ. Вып. 3. 2007.
17. Сверчков Л.М., Бороффка Н. Археологические исследования в Бандыхане в 2005 г. // ТБНЭ. Вып. 3. 2007. С. 97–131.
18. Сверчков Л.М., Бороффка Н. Период Яз II: этапы и хронология // Академическое востоковедение в России и странах ближнего зарубежья (2007–2015): Археология, история, культура / Под ред. В. П. Никонорова и В. А. Алёшкина. — СПб., 2015. С. 567-582.
19. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент., 1982. ... на. Т. II. М.–Л., 1950.



UDK:1:18:7.01.11

Haydar YULDASHXODJAEV,

Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

E-mail: haydarxon69@mail.ru

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilov taqrizi asosida

MUSOXONXOJA DAHBIDIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Musoxon Dahbidiyning hayoti va ilmiy faoliyati, ilmiy merosi, xususan, uning ijtimoiy-siyosiy masalalardagi qarashlari falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Musoxon Dahbidiy tomonidan tasavvufda odob-axloq masalariga doir qarashlari, tavsiya va takliflari xususida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, siyosat, zikr, pir, xalifa, "Maxzan at-tarruf", "Ad-Durr al-maknun", "Samariya" shajara, sayyidlar, naqshbandiya-mujaddidiya, Qodiriya, Suhrawardiya, Chishtiya, Naqshbandiya ta'limoti.

ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МУСАХАНХОДЖИ ДАХБИДИ

Аннотация

В статье предлагается общий обзор жизни и научной деятельности Мусахана Дахбиди и его научное наследие с философско-исторической точки зрения, также рассмотрены в частности, его взгляды на общественно-политические вопросы. Особое внимание уделяется изложению взглядов, рекомендации и предложения Мусахана Дахбиди по этическим основам суфизма.

Ключевые слова: общество, политика, зикр, наставник, последователь, "Махзан ат-Таарруф", "Ад-Дурр ал-Макнун", "Самария", шаджара, Саййиды, Накшбандия-Муджадидия, Кадирия, Сухравардия, Чистия, доктрина Накшбандия.

THE LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF MUSAKHANHOJA DAHBIDI

Annotation

The article offers a general overview of the life and scientific work of Musakhan Dahbidi and his scientific heritage from a philosophical and historical point of view, and also examines in particular his views on socio-political issues. Particular attention is paid to the presentation of the views, recommendations and proposals of Musakhan Dahbidi on the ethical foundations of Sufism.

Key words: society, politics, dhikr, murshid, khalif, Makhzan at-Taarruf, Ad-Durr al-Maknun, Samariya, shajara, Sayyids, Naqshbandiyya-Mujaddidiya, Qadiriyya, Suhrawardiyya, Chishtiyya, Naqshbandiyya doctrine.

Kirish. Movarounnahr o'lkasidan ilm-fanning turli sohalari bo'yicha yetuk olimlar, fozil ulamolar, buyuk mutafakkirlar va benazir allomalar yetishib chiqqan. Ular ilmiy-ma'rifatning yuksalishiga xizmat qilish barobarida o'zlari mansub bo'lgan yurtning nomini butun dunyoga taratganlar. Bunday allomalarning ko'pchiligi, shubhasiz, ayni hududda keng tarqalgan tasavvufning turli tariqatlariga mansub shaxslardir.

Hozirgi kunda falsafiy tadqiqotlar orasida tasavvuf ta'limotini o'rganish, unga oid manbalarni o'rganishga ehtiyoj va qiziqish ortib bormoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ushbu so'zlari ham fikrimiz dalilidir: "Mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi".

Shu o'rinda aytish kerakki, tasavvufning islom sivilizatsiyasining shakllanishi, o'rta asr Sharq teologik yondashuvlar jarayonlaridagi o'zaro aloqadorligini, bog'liqligini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar ko'p emas.

Naqshbandiya tariqati dastlab shaharlarda savdogar va hunarmandlar o'rtasida keng tarqalgan. Sunniylik e'tiqodiga muvofiq bo'lgan mazkur tariqat, "xafiy zikr"ga asoslangan. Unda zohiran ko'zga tashlanadigan xatti-harakatlardan tashqari "suhbat", "nisbat" va "robita" ga kuchli e'tibor beriladi. Naqshbandiya, boshqacha qilib aytganda, Xojagon tariqatining kamolga yetgan bir ko'rinishi bo'lib, uning nazariy asoslari XII asrdayoq Yusuf Hamadoni (1048-1140) va Abduxoliq G'ijduvoni (1103-1179) tomonidan ishlab

chiqilgan, keyinchalik esa Bahouddin Naqshband (1318-1389) uning asosiy tamoyillarini tartibga solgan. Shuningdek, uning amaliy va nazariy taraqqiyotida Alouddin Attor (1338-1400), Xoja Muhammad Porso (1345-1419), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1452), Xoja Ahmad Kosoniy, Ahmad Sirhindiy (1564-1624/25) kabi mutasavvif shayxlarning xizmati katta bo'ldi. Ana shunday shaxslardan biri – Naqshbandiya tariqatining yirik vakili va nazariyotchisi XVIII asrda yashab o'tgan Muhammad Musoxon ibn Isoxoja Dahbidiydir (vaf. 1776y.).

Musoxon Dahbidiyning hayot va faoliyati hamda tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni haqida turli davrlarda mutasavvif hamda olimlar tomonidan ma'lumotlar keltirilgan.

Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining namo-yondasi Musoxon Dahbidiy katta orifiy ilm sohibi bo'lganligini faqat uning shogirdlari va farzandlari to'plagan manoqiblar tasdiqlab qolmasdan, balki o'zi yozgan ilmning turli sohalari, ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan asarlari ham tasdiqlab turibdi.

Musoxon Dahbidiyning to'liq ismi Muhammad Musoxonxoja ibn Muhammad Isoxoja ibn Muhammad Boboxoja ibn Muhammad Roziqxoja ibn Abd al-Mo'minxoja ibn Xoja Hoshim ibn Muhammad Aminxoja (Xojayi Kalon) ibn hazrat Maxdumi A'zamdir. U Maxdumi A'zam al-Kosoniy (1461-1542)ning yettinchi avlodi bo'lib, Samarqanddan 15 km. shimol tarafda joylashgan Dahbid mavzesida dunyoga kelgan. Tadqiqot jarayonida duch kelingan muammolardan biri Dahbidiyning tug'ilgan sanasi bilan bog'liqdir. Mazkur shaxsning hayoti bilan shug'ullanganlar orasida ham ushbu masala tugul yechimini

topmagan. Tadqiqotchi Komilxon Kattaev, uning taxminan 1708-1709 yillarda tavallud topgani xususida ma'lumot beradi. Ammo Dahbidiy zamonasiga yaqin davrda yashagan Mir Muhammad Siddiq uning 80 yoshlar chamasi umr ko'rganini yozadi. Demak, Musoxon Dahbidiy taxminan 1698-99 yillarda tavallud topgan, deb belgilash mumkin.

Musoxon Dahbidiyning yoshligi Movarounnahrda iqtisodiy va siyosiy tanazzul jarayonlari kechayotgan bir pallaga to'g'ri kelgan. Shu bois dastlabki tahsilni Samarqanddagi Tillakori madrasasida olgan Dahbidiy ilm istagida otasi bilan Hisor yaqinidagi Qarnak qabilasiga – tog'asi Muhammad Rizo Qarnakiy yoniga borgan. Muhammad Rizo Hisordagi Kubraviya tariqatining ko'zga ko'ringan shayxlaridan edi. Bir qancha vaqtdan so'ng Musoxon Dahbidiy amakisining maslahati bilan haj ziyoratiga otlanadi. Kashmir tomon yo'lda Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining shayxi – Ahmad Sirhindi avlodidan bo'lgan – Miyon Obid Jahonobodiy (vaf. 1738-39) bilan tanishadi va uning muridi bo'lib qoladi.

Shu o'rinda aytish muhimki, muallif Musoxon Dahbidiyning boshlang'ich maktabdan pir-murshidlik darajasiga yetgunigacha bo'lgan ustozlari haqida birma-bir batafsil ma'lumot berishga harakat qiladi. Bu esa o'z davri ijtimoiy-siyosiy vaziyatidan kelib chiqqan va maqomot (agiografik xarakterdagi) shaklidagi asarlarga xos bo'lgan uslubni ko'rsatadi [1]. “Bas, maxfiy qolmasinki, hazrati Eshon (Musoxon) janobi shayxu-l-mashoyix Miyon Muhammad Obidning muridlaridandirlar. Ul zot esa hazrati shayx Abdulahad Sajjodanishin-i xozini-r-rahmaning muridlaridandir. Hazrati Miyon Muhammad Said Amin hazrati eshon ardatu-l-vusqo Valiy Qayyumning inisidir. Miyon Muhammad Ma'sum esa Mahbubi Hamadoniya Mujaddidi alfi soniy Imom Rabboniy Miyon Shayx Ahmad Sirhindi Gujarotiy Foruqiyning farzandi arjumandlaridir”.

Majzub Namangoni va Jumaquli Xumuliyning asarlarida qayd etilishicha, Musoxon Dahbidiy tasavvuf borasidagi ilk ta'limni tog'asi Muhammad Rizoxoja Qorabog'iydan olgan. Manbalarda uning hayoti va faoliyati haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Lekin Xumuliy bergan qisqacha ma'lumotga asoslanib aytish mumkinki, u o'z zamonasining diniy bilimlar, ayniqsa, tasavvuf borasidagi yetuk ulamolardan bo'lgan. Ushbu fikrning dalili sifatida aytish o'rinli, aqoid ilmiga katta hissa qo'shgan yetuk olim va hozirjavob shoir, “Sabot al-ojiziyn” [2]ning muallifi So'fi Olloyor ham Qorabog'iyning huzurida kamolga yetgan.

Musoxon Dahbidiy tog'asining qo'lida bir yil tarbiya olgandan so'ng uning ko'rsatmasi bilan Hindistonga borgan va u yerda podshoh saroyida sipoh, ya'ni askar bo'lib xizmat qilgan. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Delhi shahridagi Mujaddidiya tariqatining piri murshidi Miyon Muhammad Obid Jahonobodiyga shogird tushgan. U Mujaddidi Alfi Soniy Ahmad Sirhindiyning o'g'li Abd al-Ahadning farzandidir.

Dahbidiy bu ustoz qo'lida uning vafotiga qadar tahsil oladi. Ustozidan so'ng uning ishini davom ettirib, Mujaddidiya tariqatini qayta tiklaydi. Dahbidiy o'z asarida Miyon Muhammad Obidni hurmat bilan tilga olib, unga tariqat yo'lida shogird tushgani xususida shunday yozadi: “Tarixga bir ming bir yuz ellik bir (mil. 1738-39–H.Yu.) erdikim, ixlos chehrasini rif'at ixtisos ostonasig'a va irodat boshini ul tariqat bodiyasining sayyohi va ul haqiqat dengizining g'avvosi, irshod va hidoyat masnadining sadri, rabboniy sifatlar mavradi, shayximiz va maxdumimiz hazrati Miyon Muhammad Obid qaddasallohu ruhahu oyoqlariga surtdim. Va qadam qo'ydim. Qariyb to'qqiz yil onhazrat tariqlarida qoyim va yo'llarida mustaqim, irodat ostonasi mu'takiflari va ul janob mulozimlarining xizmatida bo'lib, o'shal oliy dargoh itlariga hamkosa bo'lib, saodat xirmanidan no'shachinlik qildim. Valoyat asarlarini (ta'sirini) va karomat xasois(xususiyat)larini ul hazratdan mushohada qildim...”

To'qqiz yildin so'ng nogoh farmoni ilohiy taqozosi bilan ranjur (betob) bo'ldi. Hazrati samadiy borgohidan hazrati samadiy munodiysi (nido qilg'uuvchi), xitobi mustatob (yoqimli xitob):

يَا أَيُّهَا النَّاسُ الْمُطْمَئِنَّةُ * ارْجِعِي إِلَى رَبِّكِ رَاضِيَةً مَرْضِيَّةً

Ma'nosi: “Ey, xotirjam nafs! Robbingga sen Undan, U sendan rozi bo'lgan holda qayt!” nidosini yetkazdi. Ahadiyyat avjining shahbozi parvozdan to'xtagan jasadni tark etib, asliy (markaz)ga qaytdi va haqiqiy visolga payvasta bo'ldi. Qaddasallohu sirrahu-l-aziz”.

Musoxon Dahbidiy hazrat Muhammad Obid huzurida tasavvufning sirlarini o'rganish bilan birga, o'sha yerlik olimlardan tafsir, fiqh, hadis, mantiq, balog'at, sarf-nahv kabi ilmlarni ham puxta o'zlashtiradi.

Xumuliy Musoxon Dahbidiyga ta'rif berar ekan, shunday deydi:

ذكر اوصاف قطب الاقطاب حضرت سيد
ان مركز دايرة ارشاد ده بيدى قدس الله تعالى بر وجه العزيز موسى خان خواجه
موصّل طالبا، آگاه و آن محیط حلقه اوتاد آن هادی سالکان سیر الی الله، و آن
طبیّة آن نتیجة کریمه آل رسول و آن لطیفه شریفه نسل بتول، آن خلاصه ذریه
علی الله، و آن سلاله سنیه علیه ولی الله آن خضر بادیه هدایت و توفیق، و آن
ولایت و تحقیق آن مسیحا قلوب اموات ارباب جهالت و آن روح البیاس بحار
فکرات آن آفتاب اوج عظمت و جلال و آن ماه تاب برج القدس بطون اصحاب
شریعت و آن واضع آثار آسمان سر بلندی آن مکرمت و کمال و آن رافع انوار
مقرب کرباس دنی قتلدی و طریقت آن محیی اطوار نقشبندی، آن محور آسمان
صفحات اسلوب آن مسند نشین ایوان قاب قوسین او ادنی و آن صفوت افزای
مقدمین و سلف و آن زنگ زدای مرات قلوب متأخرین و خلف، و آن خاتم
اولیاء، حقانی، و آن مقدم اصفیای، روحانی و آن مظهر جود و سخاکه از مبده
و سایه کرامت گاه تجلی نمود که بیدی سید موسی خان ده بیدی ولایت

“Qutblar qutbi Musoxon xoja Dahbidiyning sifatlari bayoni. U Irshod doirasining markazi, (tariqat) ustunlarining dengizi, Alloh tomonga sayr qiluvchi soliklarning hidoyatchisi, toliblarni o'z talablariga yetkazuvchi, Payg'ambar oilasining natijasi, poklar latif naslining sharafti, Alloh yaratganlarning xulosasi, hidoyat va tavfiq biyobonining Xizri, valiylik dengizining Ilyosi, o'lik qablarning Masihi, fikrat sohiblarining Ruhul qudsi, karomat burjining mohitoboni, shariat osmonining baland nuri, tariqat merosining asoschisi, naqshbandiya hududining tiriltiruvchisi, Allohga yaqinlik osmonining o'qi, avvalgi o'tgan solihlar varaqlarining pok namunasi, keyingi kelganlarning qalbidagi zangni ketkazuvchi, haqqoniy avliyolar nihoyasi, ruhoniy poklarning peshvosi, yaxshilik va saxovat manbai, karomat manziling soyasi Sayyid Musoxon Dahbidiydir”. Uni “Alloh yo'lidagi soliklarning yo'lboshchisi”, “ogoh toliblarni Haq visoliga yetkazuvchi”, “hidoyat vodiysining Xizri”, “tariqat qonunlarini yo'lga qo'yuvchisi”, “Naqshbandiya tariqatining tiriltiruvchisi” kabi yuksak sifatlar bilan ta'riflar ekan, nasabi haqida so'z yuritib, shunday deydi: “Ulug'larning xonadonidandir, Maxdumi A'zam nomi bilan mashhur G'avsu-l-akram, qutbi olam Mavloni Xoja Kosoni Dahbidiyning ulug' nabiralaridan edi”.

Xumuliy Musoxon Dahbidiyning Hindistonga borib, u yerda sarf, nahv, hadis, fiqh, tafsir, kalom, mantiq kabi bir necha diniy ilmlardan tahsil olgani va, oxir-oqibatda, tasavvufiy ilm va amaliyotda zamonasining yirik mutafakkirlaridan bo'lmish Shayx Miyon Obidga (vaf. 1738/39y.) shogird tushgani haqida batafsil ma'lumot beradi. Jumladan, u shunday yozadi: “Tavfiq va saodat yo'lboshchisi ul sharaf va karomat mazharining qo'lini hazrati qutbu-l-aqtob, shayxu-l-mashoyix, ya'ni janob g'avsi zohid Shayx Miyon Muhammad Obid quddisa sirruhuning etagiga topshirdi va suluk oyog'ini mujohadat yo'lga qo'ydi”.

Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatiga kirishi hamda uning Hindistondagi tahsili to'g'risida Qozi Abu Tohirxoja o'zining “Samariya” asarida shunday yozadi: “Samarqand va uning atrofiga bo'lgan buzg'unchilik va vayronagarchilik vaqtida hazrat Musoxon Hindiston mamlakatiga ketib, unda hazrati Miyon Muhammad Obid sohibiga murid bo'lib, hazrati Miyon ajdodlarining Alfi soniy

tariqatini yangiladi va sharif bobolarining silsilasini davom ettirdi".

Musoxon Dahbidiy Hazrati Eshon Xo'ja Hoshimiyni ham o'zining bilvosita ma'naviy ustozlari sifatida ko'radi. Bu haqda "Navodir al-ma'arif" asarida shunday qayd etadi: "Hazrati Eshon Xo'ja Hoshimiy (qaddasallohu ruhahu) ushbu muallifning (Musoxon Dahbidiyning – H.Yu.) hazratlaridan biridir. Hasbi irodaga ko'ra, bu faqir ikki vosita birla unga yetadi. Nasab yo'li bilan esa to'rt vosita bilan (yetadi)". Shundan so'ng asarda Xo'ja Hoshimiyning karomatlarini va tariqat yo'lidagi amallari bayoni zikr qilinadi.

Shayx Muhammad Obid Musoxonning Maxdumi A'zamdek piri komilning avlodiga mansubligi hamda o'ta zehnlili va qobiliyatli bo'lgani uchun unga ko'p izzat-ikrom ko'rsatgan va to'rt tariqat: Naqshbandiya, Qodiriya, Suhrawardiya va Chishtiyaga rahnamolik qilish ijozatini bergan. Hazrat Muhammad Obid vafot etgandan so'ng Musoxon Dahbidiy 1738 yildan e'tiboran o'n sakkiz yil mobaynida Hindistonda turib Xuroson, Movarounnahr va Sharqiy Turkistongacha bo'lgan musulmon o'lkalaridagi tariqat ahliga rahbarlik qilgan. Shundan so'ng Musoxon Dahbidiy va uning atrofidagi yirik xalifalari Samarqandga ko'chib keladilar. Mutasavvif Naqshbandiya markazini o'zlari bilan birga Hindistondan Movarounnahrqa qayta olib kelganlar. Bu xususda Xumuliy shunday yozadi:

وجود بعد از انقضای اوقات کثیره شبی از شبها در واقعه که عبارت حضرت مثالی، اثبات در مراتب خیال جناب جد اعلای خود قطب عالم مخدوم اعظم قدس سره را دیدند و آنجناب خطاب بایشان، نموده، فرمودند که ای فرزند جویهای دهیبد از گل و لای پر شد کسی نیست که تیمار جویها نماید تا اهالی آنجا سوسیز و سیراب گردد یعنی اشارت نمودند که شما را مزارع امل هدایت را که دیر است، افسرده روشن نموده از جویبار بده بید باید رفتن تا چراغ گردید چون این بشارت نیکرا واقع توجه نهال روضه طالبانرا آب بدهند و ارادت الله باین نوع تعلق گرفته بود که لب تشنگان ماوراء النهر و ترکستان از این قوم جاری و تشویش عطشان بهروز گردیده آب در جوی درنگ پروری آورده ساری گردد آن بحر موج حقیقت را نسیم الطاف ربانی در جنبش و اهتزاز از هندوستان بجدول استعداد اهل ترکستان جاری گردانید بعد از واقعه مذکور آنحضرت را شوق سفر ترکستان و عزم زیارت مزار پرانوار عظام آبا و اجداد بی آرام، گردانیده احباب و اصداق و مشایخ و علماء آندیار را وداع کرام ببقرا خود عازم نمردند و ده بید و تارک هندوستان و دهلی نموده با اصحاب و اتباع گردیده

"Ko'p vaqt o'tgach, tunda bir voqea ro'y berdi. Musoxon Dahbidiyning xayol ko'zgusida ulug' bobosi – qutbi olam, ya'ni janob Maxdumi A'zam namoyon bo'lib, unga

shunday xitob etdi: "Ey, farzand, Dahbid ariqlari tuproq va loy bilan to'ldi. Biror kishi yo'qki, ariqlarni tozalasa, aholining ekinzorlari ko'm-ko'k va serob bo'lsa", ya'ni ishorat qildilarkim, siz Dahbidga borishingiz kerak, toki xiralashagan hidoyat chirog'ini yana ravshan qilish va talabalar bog'lari ariqlarini tavajjuh nihollari bilan obod qilish kerak. Bu yaxshi bashorat mazmuniga Movarounnahr va Turkiston tashna lablarini chanqoqlik tashvishidan qutqazib, bu xalq ariqlarini haqiqat dengizi mavjlari bilan serob qilib, yonidan rabboniy nasim bilan orasta qilish bor edi. Shu voqeadan so'ng Hazrat Turkistonga qaytish va o'z ulug' ota-bobolarining nurli qabrlarini ziyorat qilish shavqida oromlarini yo'qotdilar. Hindistondagi do'stlar, shayxlar va ulamolar bilan vidolashib, shogird va muridlari bilan Samarqand, ya'ni Dahbidga qarab yo'lga chiqdilar".

Bundan xulosa chiqargan Musoxon Dahbidiy Dehlidan Samarqandga keladi. Albatta, uning Samarqandga kelishi hammaga ham ma'qul bo'lavermaydi. Chunki o'sha paytlarda Samarqand va uning atrofida o'zini shayx deb bilib, ilmi va taqvosi yetarli bo'lgan mansabparastlar ko'payib ketgan edi. Ular o'z ortlaridan ergashib kelayotgan xalqning boshqa tomonga burilib ketishini xohlamas edilar.

Xulosa. Shu yo'sinda manbalardagi ma'lumotlarni umumlashtirib, xulosa o'rnida quyidagilarni aytish mumkinki:

Movarounnahr o'lkasidan ilm-fanning turli sohalarini bo'yicha yetuk olimlar, fozil ulamolar, buyuk mutafakkirlar va benazir allomalar yetishib chiqqan. Ular ilm-ma'rifatning yuksalishiga xizmat qilish barobarida o'zlari mansub bo'lgan yurtning nomini butun dunyoga taratganlar. Maqolada hayoti va faoliyati tahlil etilgan Musoxon Dahbidiy o'shanday mutafakkirlardan biridir;

Musoxon Dahbidiy mintaqada tasavvuf ta'limotining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkir, Zahiriddin Muhammad Boburdek ulug' davlat arbobi va shoirga ustozlik qilgan Maxdumi A'zam Kosoniy Dahbidiyning avlodlaridandir;

Musoxon Dahbidiy Naqshbandiya-Mujaddidiya sulukining nazariy rivojiga katta hissa qo'shdi, asarlarida tariqat ta'limotini shariat mezonlari asosida qayta ishlab chiqdi, uni turli noto'g'ri aqida va amaliyotlardan tozaladi. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab markazi Hindistonga ko'chgan bu tariqatni Dahbidiy o'z vatani – Movarounnahrqa qaytarib olib keldi va rivojlantirdi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – B. 236.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 43.
3. Navro'zova G. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 41.
4. Maulana Fahr ad-din 'Ali b. Husayn Va'iz Kashifi. Rashahat 'ayn al-hayyat / Noshir 'Ali Muiniyat, jild-i avval. – Tehron, 1975. – S. 32–33, 59–61.
5. Xismatullin A.A. Sufiyskaya ritualnaya praktika (na primere bratstva Nakshbandiya). – Sankt-Peterburg.: Peterburgskoe Vostokovedenie, 1996. – S. 44.
6. Paul Ju. Doctrine and Organization. The Khwajagan/Naqshbandiya in the first generation after Baha'ad-din. Anor-1. – Halle-Berlin, 1998. – R. 20-26.
7. Kattaev K. Maxdumi A'zam va Dahbed. – Samarqand: So'g'diyona, 1994. – B.24.
8. Mir Muhammad Siddiq. Tarjima-yi holi Musoxon. – Toshkent: FA ShI, Qo'lyozma, inv. № 2663/I.
9. Jumaquli Xumuliy. Tarix-i Xumuliy. – Toshkent: FA ShI, Qo'lyozma, inv. № 37/VI.
10. MULLA JUM'A-QULI KHUMULI, TARIKH-I KHUMULI. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhojayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. Text: 243 pages. Introduction (in English and in Uzbek): 42 pages.